

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

“BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT” FAKULTETI

«Bitiruv malakaviy ishi
himoyaga tavsiya etildi»
“Davlat moliyasi va soliqlar” kafedrası
mudiri, i.f.n., dots. S.Xudoyqulov

«_____» _____ 2013 y.

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**MAVZU: “BILVOSITA SOLIQLARNI HISOBLASH
MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH”**

BAJARDI: “Buxgalteriya hisobi va audit”
fakulteti «Soliqlar va soliqqa tortish»
yo‘nalishining 4-kurs talabasi Alimov
Ulugbek Shavkatovich_____

ILMIY RAHBAR: i.f.n., dots. Qulmatov
Ch.A._____

MUNDARIJA

Kirish	3
I-BOB. Bilvosita soliqlarning nazariy va uslubiy asoslari	6
1.1. Soliq tizimida bilvosita soliqlarning shakllanishi va rivojlanishi	6
1.2. Bilvosita soliqlarning soliq tizimidagi tutgan o'рни va ahamiyati.....	12
II- BOB. Bilvosita soliqlarni hisoblash mexanizmining amaldagi holati tahlili	22
2.1. Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari, soliq solinadigan bazani belgilash va hisoblash tartibi.....	22
2.2. Aktsiz solig'i to'lovchilari, soliq solinadigan baza va hisoblash tartibi.....	30
2.3. Bilvosita soliqlar bo'yicha soliq yuki va uning soliqqato'lovchilarga ta'siri	45
III- BOB. Bilvosita soliqlarni hisoblash mexanizmini takomillashtirish	55
3.1. Bilvosita soliqlarni hisoblash mexanizmini takomillashtirish yo'llari	55
3.2. Yuridik shaxslar to'laydigan bilvosita soliqlarni hisoblashda mavjud muammolar va ularning echimlari.....	58
Xulosa va takliflar.....	67
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	70
Ilovalar	

KIRISH

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. 2012 yilda iqtisodiyotimizda amalga oshirilgan keng ko'lamli tizimli islohotlar, mamlakatimizni modernizatsiyalash borasida tatbiq etilgan innovatsion usullar, davr nuqtai nazaridan qabul qilingan qonunlar, chiqarilgan farmonlar, qarorlar barcha sohalarda Vatanimizni yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qilmoqda. Bundan roppa-rosa bir yil avval Yurtboshimiz tomonidan 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlari belgilab berilganda, aynan, iqtisodiyotimizni raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha dastur tayyorlash va uni amalga oshirish lozimligini ta'kidlangan edi. Aynan, mana shu majlisda Yurtboshimiz 2012 yilni "Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi", deya bashorat qilgan edilar.

Oradan bir yil o'tib Prezidentimiz tomonidan 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida qisqa muddat davomida iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlar bilan ta'minlanganli, xususan mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8,2 foizga, sanoat ishlab chiqarish hajmi 7,7 foizga, qishloq xo'jaligi 7 foizga, chakana savdo aylanmasi hajmi 13,9 foizga oshganligi e'tirof etildi. Bunday keng ko'lamli barqaror o'sishning ta'minlanishiga mamlakatimizda olib borilayotgan oqilona byudjet-soliq siyosati ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Zero, Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, "2012-yilda soliq yukini kamaytirish siyosati davom ettirildi. Kichik korxona va mikrofirmalar uchun yagona soliq to'lovi stavkalari 6 foizdan 5 foizga tushirilgani, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun belgilangan soliq stavkasi esa sezilarli tarzda, ya'ni o'rtacha ikki barobar kamaytirilgani buni yaqqol tasdiqlaydi. Shularga qaramasdan, davlat byudjetining daromadlar qismi bo'yicha ko'rsatkichlari to'liq bajarildi, erishilgan profitsit yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,4 foizni tashkil etdi. Davlat jami xarajatlarining asosiy qismi, ya'ni qariyb 59,2 foizi ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy himoya qilish chora-tadbirlarini amalga oshirishga qaratildi, uning 34

foizdan ortig'i ta'lim, 14,5 foizdan ko'prog'i sog'liqni saqlash sohalarini moliyalashtirishga yo'naltirildi"¹.

Darhaqiqat, davlat byudjetdan xarajatlarni amalga oshirish uchun byudjetining daromadlar qismi bo'yicha ko'rsatkichlari to'liq bajarilishi lozim. Bu o'rinda byudjetining daromadlar qismida asosiy salmoqqa ega bulgan bilvosita soliqlarni hisoblash mexanizmini ilmiy jihatdan tadqiq qilish kun tartibidagi dolzarb mavzu hisoblanadi.

Muammoning yrganilganlik darajasi. Bilvosita soliqlarni hisoblash mexanizmlariga oid nazariy qarashlar mumtoz iqtisodchi olimlardan T.Gobbs, A.Smit, D.Rikardo, U.Petti, N. Turgenev, D.Yum, A.Laffer, Lorents hamda hozirgi zamon iqtisodchi olimlaridan R.Kempbell, K.Makkonel, G.Menkyu, V.Terdoxlebov, S. Fisher, A.Voznesenskiy, V.Gluxov, E.Teyt, A.Shenk, E.Glazova, T.Yutkina, N.Milyakov, D.Chernik, A. Romanovlarning ilmiy izlanishlari va asarlarida bevosita yoki bilvosita yoritilgan. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlarida hamda mamlakatimizda soliqlar nazariyasi va amaliyotini rivojlantirishda o'zining muayyan hissasini qo'shib kelayotgan olim hamda amaliyotchi mutaxassislardan V.Anoshkin, Q.Yahyoev, T.Malikov, E.Gadoev, O.Olimjonov, N.Xaydarov, Yo.Abdullaev, M.Yo'ldoshev, V. Galkin, B.Toshmurodova, M.Rixsieva, F.Shamsutdinov, A.Vahobov, A.Jo'raev, N.Ortiqov, B.Xodiev, A.Bekmurodov, M.Alimardonov, S. Xudoyqulov, I.Zavalishina va boshqalar tomonidan ham

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari. Mazkur bitiruv malakaviy ishining maqsadi bilvosita soliqlarning iqtisodiy mohiyati, uning o'ziga xos xususiyatlari, bilvosita soliqlarning soliq tizimidagi tutgan o'rni, bilvosita soliqlarni hisoblash mexanizmining amaldagi holati tahlili, bilvosita soliqlarni hisoblash mexanizmini takomillashtirish bilan bog'liq faoliyatlarni o'rganishdir.

Bitiruv malakaviy ishining muhim va asosiy vazifasi bu bilvosita soliqlarni undirish jarayonida yuzaga keluvchi soliq munosabatlarini vujudga kelishi,

¹ КаримовИ.А. Бош мақсадимиз – кенг қўламли ислохотлар ва модернизация йўлини қатъият билан давом эттириш. - “Халқ сўзи” газетаси. 2013 йил 19 январь, № 13 (5687).

bilvosita soliqlarning iqtisodiy mohiyati, uning o'ziga xos xususiyatlari, bilvosita soliqlarning soliq tizimidagi tutgan o'rne, bilvosita soliqlarni hisoblash mexanizmining amaldagi holati tahlili, bilvosita soliqlarni hisoblash mexanizmini takomillashtirish bo'yicha takliflar, tavsiyalar berishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti. Respublikamizda faoliyat kursatayotgan bilvosita soliqlarni to'lovchi yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti. Bilvosita soliqlarni to'lovchi yuridik shaxslar va ularni soliqqa tortish bilan bog'liq munosabatlar tadqiqot predmetini tashkil etadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, bitiruv malakaviy ishda ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan kelajakda mamlakatimizda bilvosita soliqlarni hisoblash mexanizmi masalalarini mustaqil ravishda chuqur tadqiq etishga qaratilgan maxsus ilmiy - tadqiqot ishlarida nazariy manba hamda qo'llanma sifatida foydalanish mumkin. Unda keltirilgan tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati bilvosita soliqlarni hisoblash mexanizmi takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlari tizimini ishlab chiqishda hamda byudjet parametrlarini belgilashda qo'llash bilan belgilanadi. Bitiruv malakaviy ish materiallaridan oliy o'quv yurtlarida "Soliq nazariyasi", "Yuridik shaxslarni soliqqa tortish", "Soliq hisobi", "Soliq menejmenti" kabi o'quv fanlari dasturlarini takomillashtirish va o'qitishda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ish tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Bitiruv malakaviy ishi hajmi 74 betdan iborat.

1-bob. Bilvosita soliqlarning nazariy va uslubiy asoslari.

1.1. Soliq tizimida bilvosita soliqlarning shakllanishi va rivojlanishi.

Iqtisodiyotning hozirgi davrida bilvosita soliqlarning xo'jalik yurituvchi sub'ektlar ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sirini ilmiy-nazariy va amaliy-uslubiy jihatdan o'rganishda soliqlarning an'anaviy shakllanish hamda zamonaviy rivojlanish tendentsiyalarini chuqurroq tadqiq qilish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

Evolutsion rivojlanishning tarixiy tadrijiy bosqichi shundan dalolat beradiki, soliqlar ijtimoiy iqtisodiy tuzilishiga qarab yoxud undirib olish manbaiga ko'ra bevosita va bilvosita soliqlarga bo'lingan. Agar, bilvosita soliqlarning tarixiy shakllanish jarayoniga e'tibor bersak, boj to'lovlari dastlabki bilvosita majburiy to'lov sifatida yuzaga kelgan bo'lsa, aktsiz solig'i davlatchilikning keyingi sivilizatsiyadan bosqichlarida bilvosita soliq sifatida undirib boshlandi va davlat g'aznasining asosiy daromad manbai sifatida sivilizatsiyaning barcha bosqichlarida soliq tizimida alohida ahamiyat kasb etib kelmoqda. Aslini olganda bilvosita soliqlarning yuzaga kelishi davlatchilikning paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lsa, ularning shakllanishi jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, iqtisodiy tizimning turi, davlatning iqtisodiy katta tashqi siyosatining mazmuni asosida kechmoqda. Fikrimizni o'tgan asrning dastlabki o'n yilliklari (birinchi jahon urushi) va o'rtalarida bilvosita soliqlarning amal qilish holati tasdiqlaydi. Ya'ni, birinchi jahon urushi davrida g'arb mamlakatlarida siyosiy vaziyat aylanishdan va sotishdan soliq turlari joriy etishni taqazo etdi. Chunki, bu soliq turi orqaligina Evropadagi bir qator davlatlar davlat g'aznasiga urush xarajatlarini qoplash maqsadida ko'proq moliyaviy resurs(pul)larni jalb etish imkoniyatiga ega bo'lgan. Biroq, aylanishdan va sotishdan turlari fiskal xususiyatga ega bo'lib, rag'batlantirish xususiyatiga ega emas edi. Natijada mahsulotlarning qimmatlashuvi, ularning kamayishi, iste'molchi va ishlab chiqaruvchilarning norozichiligi yuzaga keltirdi. Pirovardida bu mamlakatlardagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat bilvosita soliqlarni hisoblash va undirish mexanizmini tubdan o'zgartirish

zaruratini keltirib chiqardi. Buning echimi sifatida o'tgan asrning birinchi yarim yilligining oxirlarida aylanishdan va sotishdan olinadigan soliqlar o'rniga boshqabir bilvosita soliq qo'shilgan qiymat solig'i joriy etildi. Iste'molni soliqqa tortish mexanizmidagi bunday o'zgarish Frantsiya davlatida amalga oshirildi, ya'ni qo'shilgan qiymat solig'i ushbu davlatda birinchi qo'llanildi va aksariyat Evropa davlatlari uchun tajriba makonini o'tadi.

Qo'shilgan qiymat solig'ining avvalgi iste'mol soliqlaridan farqini quyidagilar bilan izohlash mumkin:

Birinchidan, sotishdan soliqni ishlab chiqarish va iste'mol munosabatlari davr oraliqidagi jarayonga davlatning iqtisodiy ta'sir doirasi cheklangan bo'lib, mahsulotning iste'molchi tasarrufiga o'tgan holatda soliq sifatida undirilar edi.

Ikkinchidan, qo'shilgan qiymat solig'ida tovarlar aylanishining to'liq qiymati emas, balki yuzaga kelgan qo'shilgan qiymat solig'i ko'p qirrali bo'lib, ishlab chiqarish hamda muammola jarayonining har bir bosqichida qo'shilgan qiymatning bir qismini byudjetga yo'naltirib turadi.

Uchinchidan, qo'shilgan qiymat solig'i ishlab chiqarishning har bir bosqichida xom-ashyo va material qiymatiga moddiy hamda mehnat harajatlarining miqdoriga bevosita bog'liq bo'ladi va pirovard mahsulotning realizatsiya jarayonida ustama shaklda qo'shilishi tufayli oraliq mahsulotlarning tannarxiga ta'siri bo'lmaydi. Bu esa ishlab chiqarishning ixtisoslashuviga salbiy ta'sir etmaydi, hamda bitta kompaniya (korxona) tarkibida ichki ixtisoslashuv va diversifikatsiyalashuv jarayonini rag'batlantirish omili sifatida xizmat qiladi.

To'rtinchidan, qo'shilgan qiymat solig'i orqali davlatning iqtisodiy funktsiyalarini moliyalashtirish imkoniyati oshgan holda, iqtisodiy ta'sir etishning vositasi sifatidagi afzalliklari namoyon bo'la boshladi. Oxir oqibat qo'shilgan qiymat solig'i aksariyat rivojlangan davlatlar soliq tizimida iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish bilan bir qatorda uning realizatsiya va iste'mol bo'g'inidagi nisbatni mo'tadillashtirishning omil bo'lib, keng o'rin oldi. Rivojlangan davlatlar ichida AQSh davlatida garchi qo'shilgan qiymat solig'i amal qilmasada iste'mol jarayoni sotishdan soliq turi orqali soliqqa tortilmoqda.

Kanada davlatida ham bilvosita soliqlar sifatida qo'shilgan qiymat solig'i undirilmasada, tovar va xizmatlardan olinadigan federal soliq (GST-goods and servies tax) mavjud bo'lib, u qo'shilgan qiymat solig'iga o'xshashdir. Ya'ni, bu soliqni oxirgi iste'molchi tovarni yoki xizmatni sotib olishda to'laydi.

Bundan tashharii Kanada davlatida sotishdan soliq (provincialstax - PST) ham undiriladiki bu soliq olish jarayonda tovar chekining alohida satrida ko'rsatilgan holda undirilib u tovarning narxiga kiritiladi, shu jihatdan uni iste'molchi to'laydi. Demak, iste'mol munosabatlarini soliqqa tortish jarayoni turli xil nomlanishdagi va ko'rinishdagi bilvosita soliqlar orqali amalga oshirilmoqda, ammo, ular iste'molni tartiblash va fiskallik xususiyati jihatidan muayyan farqlarga egadir.

Qo'shilgan qiymat, aktsiz solig'i va bojxona bojidan farqli ravishda muayyan turdagi bozorni tartibga solish imkoniyati cheklangandir. Bundan tashhari aylanishdan olinadigan va sotuvdan olinadigan soliqlarning byudjet jarayoni bilan fiskal bog'liqligi tovarlarning naflilik darajasiga, o'rinbosar tovarlarning nomenklaturasiga, marketing holatining darajasiga hamda tovarlarni iste'mol etish muddati, vaqti va hududiy omillarga bog'liq bo'ladi.

Demak, bunday soliqlarni undirish mexanizmi nafaqat iste'mol jarayonini shuningdek, yuqorida qayd etilgan holatlarni ham hisobga olishni taqazo etadi. Shu jihatdan bu soliq ayrim hududlarda undirilsa, ba'zilarida amal qilmaslik holatlarini ham ko'rish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida ham bilvosita soliqlarni undirish va qo'llash jarayoni turlicha shakllanganligi tarixiy manbalar ko'rsatadi. O'tgan asrning 20-yillarida sho'rolar tomonidan olib borilgan «Yangi iqtisodiy siyosat» davrida Turkiston ASSRda soliqlar tizimining yangi davri boshlandi. Bu davrda qishloq xo'jaligidan undiriladigan soliq, hunarmandchilik faoliyatidan olinadigan soliq, daromad soliqi, mulk soliqi, renta soliqlar, meros boji, boj to'lovlari hamda ayrim turdagi mahsulotlar uchun aktsiz soliqlari undirila boshlandi. Bunday turdagi soliqlar asosan sho'rolar tomonidan kiritilganligi bois Buxoro va Xorazm xalq

respublikalaridagi amalda bo'lgan soliq turlari hamda ularni undirish tartiblari ko'p jihatdan o'xshash edi.

1923 yilda esa hukumat tomonidan hunarmandchilik soliqi kiritildi. Bu soliq asosan patent va tenglashtirilgan yig'imdan iborat bo'lib, masalan, patent yig'imi stavkasi tillo pulda 2 so'mdan 200 so'mgacha taba'ulashtirilgan holda o'rnatilgan edi. Zargarlik qimmatbaho buyumlari esa 12 foizli stavka asosida soliqqa tortilar edi. Yigirmanchi yillarning oxirida yangidan tashkil topgan O'zbekiston SSRning byudjet daromadlari asosini soliqlar tashkil etgan. Ammo, bu davrda soliqlarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shunda ediki, soliq tizimi nafaqat byudjetni shakllantirish manbai shuning itoatkorlik holatini ta'minlashning siyosiy vositasi sifatida ham qo'llanilgan. Shu bilan birgalikda yuqoridagi soliq turlari bo'yicha aholining to'q qismiga nisbatan alohida yuqori stavkalar qo'llanilgan.

Yuqorida qayd etilganidek bilvosita soliqlar sifatida qo'llanilib kelingan aylanishdan soliq va sotishdan soliq iste'molni soliqqa tortish sifatida O'zbekiston soliq tizimida to'qsoninchi yillar boshiga qadar qo'llanilib kelingan. Bu soliqlar takror ishlab chiqarish jarayonining turlicha bosqichlarida amal qilgan. Aylanishdan soliq mahsulot (xizmat) ishlab chiqarish jarayonida mahsulot tayyorlashning turli bosqichlarida oborotni soliqqa tortish vazifasini bajargan. Bizga ma'lumki, sobiq ittifoq davrida jami ijtimoiy oraliq mahsulot mavjud bo'lgan va pirovard natijani bildirmagan. Aylanishdan olinadigan soliq mana shu orqali mahsulot davridagi har bir bosqichini qamrab olganligi tufayli uning fiskalligini oshirgan. Jami ijtimoiy mahsulot hajmi uni yaratish uchun ketgan mehnat sarfini aks ettirgan, bundan farqli ravishda yalpi milliy mahsulot uning bozorda tan olinishi ifodalaydi. Aylanishdan olinadigan soliqning eng katta kamchiligi ham shundan iborat ediki, mahsulot oraliq mahsulot sifatida qayta ishlash jarayonlarini ham qamrab olib, tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirmagan. Boshqa tomondan totalitar rejali iqtisodiy tizimda ishlab chiqaruvchilarning qattiq sun'iy integratsiyalashuvi, ya'ni bir-biriga qattiq bog'lanib qo'yilganligi bu soliqni qo'llashda adolatlilik tamoyilining amal qilmasligini ham ta'minlagan.

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng moliya kredit sohasidagi iqtisodiy islohatlarning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan soliq tizimini shakllantirish va rivojlantirishning dastlabki bosqichlari sifatida «Korxonalar, tashkilotlar, birlashmalardan olinadigan soliqlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilindi va unda boshqasoliqlar singari bilvosita soliqlar sifatida qo'shilgan qiymat solig'i va aktsiz solig'i huquqiy jihatdan asoslandi. Bu qonunning qabul qilinishi bilan amalda bo'lgan aylanishdan soliq va sotuvdan soliq o'z o'rnini qo'shilgan qiymat solig'i va aktsiz solig'iga bo'shatib berdi.

Aylanishdan soliq mahsulotning har bir aylanishidan olingan, boshqacha aytganda tovar ishlab chiqaruvchi tomonidan tovarni ishlab chiqarishdan tortib to oxirgi iste'molchiga borguncha bo'lgan harakatda ko'p marotaba soliqqatortilgan. Sotishdan soliq esa mahsulot realizatsiyasining oxirgi bosqichida tovar qiymatining ulushi sifatida bir marotaba olingan. xalqaro soliqqa tortishda esa aylanishdan soliq boshqacha variantda qo'llaniladigan, ya'ni soliqqabarcha aylanish olinmay, balki tovarlar bo'yicha alohida sanoat tarmoqlari maxsulotlari aylanishdan soliqqatortilgan. Bu asosan tamaki, alkogol maxsulotlari va to'qimachilik sanoati mahsulotlarini tashkil qilgan. Og'ir sanoat mahsulotlari (neft, gaz, avtomobil sanoatlaridan tashhari), medikamentlar, go'sht, sabzavotlar ishlab chiqarishlari aylanishdan soliqqatortilmagan. Shu sababdan ko'pchilik olimlar sobiq Ittifoqda qo'llanilgan aylanishdan soliq xalqaro standartlarga ko'ra tahlil qilingan bu soliq mohiyatiga ko'pchilik tovarlar bo'yicha sotishdan soliqqa o'xshasa, tamaki va alkogol mahsulotlari bo'yicha aktsiz solig'iga tortishga o'xshaydi deb hisoblanadi. Aylanishdan soliq sobiq Ittifoq byudjetiga qat'iy o'rnatilgan ulush sifatida tushgan bo'lib, mahsulotdan olinadigan foydaga bog'liq bo'lmagan.

Bu esa mahsulot bahosini oshirishga olib keldi. Iste'mol uchun soliq guruhiga kirgan soliqlar shu jumladan, aylanishdan soliq, sotishdan soliq va ular asosida paydo bo'lgan qo'shilgan qiymat soliqlarining asosiy belgilari quyidagicha guruhlanadi.

Birinchidan, bu soliqlar ishlab chiqarish va sotish jarayonlarida soliqqatortilgan bo'lsada, oxirgi iste'molga mo'ljallangan edi. Bu belgi esa tadbirkorlik faoliyatini soliqqa tortish (daromaddan soliq) yoki aholi daromadini soliqqa tortish (daromad soliqi)ga mo'ljallangan bevosita soliqlardan ajralib turadigan asosiy belgisidir.

Ikkinchidan oxirgi iste'molning bir qismi yoki barchasida har xil guruxdagi mahsulotlarning bir xil stavkalarda soliqqa tortilishidir. Bu belgi bilan boshqa bilvosita soliqlar, jumladan aktsiz va bojxona bojlaridan farq qiladi. Aktsizlar va bojxona bojlari ham iste'molni soliqqa tortishga xizmat qilsada, ularning ba'zi bir belgilari boshqamaqsadlarga xizmat qiladi. Masalan, aktsiz solig'i bilan ma'lum guruxdagi tovarlar (birinchi galda alkogol va tamaki maxsulotlari) ushbu mahsulotlardan olinadigan yuqori daromadlarni soliqqa tortish bilan birgalikda aktsiz solig'i qo'shimcha maqsad, yuqori baholar bilan ushbu mahsulotlarni kamroq iste'mol qilish maqsad qilib qo'yilgan.

Bojxona bojlari fiskal vazifasini bajarish bilan birgalikda boshqavazifalarni bajarishda qo'llaniladi. Masalan import uchun bojxona bojlari mamlakat ishlab chiqarishni muhofaza qilishini ko'rsatishimiz mumkin.

hozirgi kunda O'zbekiston respublikasi 2007-yilgi Yangi tahrirdagi Soliq kodeksiga muvofiq quyidagi bilvosita soliqlar belgilab qo'yilgan:

- Qo'shilgan qiymat solig'i
- Aktsiz solig'i
- Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yonilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq
- Bojxona boji.

Qo'shilgan qiymat solig'i va aktsiz solig'ining dastlabki huquqiy asosi «Korxonalaridan olinadigan soliqlar to'g'risida»gi qonun bo'lsa, hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksi va maxsus yo'riqnomalar xizmat qilmoqda.

Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yonilg'i va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq turi esa respublikamiz soliq tizimini

shakllantirish va rivojlantirish borasidagi munosabatlarning natijasi bo'lib, bu soliq ayrim soliq turlarini unifikatsiyalash va samara bermay qolgan soliq turini o'rniga yuzaga kelib chiqib soliqqa tortish mexanizmi o'rniga transport vositasi egasi o'z transportidan foydalanganlik mezoniga asoslangan ushbu soliq turi «O'zbekiston Respublikasi ayrim turdagi qonunlariga o'zgarishlar va qo'shimchalar to'g'risida»gi qonuni (2002 yil 05.04. 364–II son qonuni) ga muvofiq hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2001-yil 30–dekabrda «O'zbekiston Respublikasining 2002-yilgi davlat byudjeti parametrlari to'g'risi»gi 455-sonli qaroriga muvofiq yangi soliq turi sifatida soliq tizimiga joriy etildi.

Bojxona boji ham bilvosita soliqlar va yig'imlar turiga kirib bu soliqsiz to'lov bilvosita soliqlar ichida eng qadimiylaridan biri hisoblanib, davlatchilikning turli bosqichlarida iqtisodiy tizimning barcha shakllarida amal qilib kelgan va bugungi kunda O'zbekiston soliq tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida import-eksport operatsiyalarini byudjetining daromadlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Bojxona boji O'zbekiston respublikasining 2007-yil dekabr oyida qabul qilingan va 2008-yil 1–yanvardan kuchga kiritilgan «O'zbekiston Respublikasining bojxona kodeksi»ga hamda boshqamaxsus me'yoriy xujjatlar asosida huquqiy negizga egadir. Umumiy xulosa qilib aytganda bilvosita soliqlar o'zining dastlabki ko'rinishlari takomillashgan holda respublikamiz soliq tizimi ham shakllanish va rivojlanish bosqichlarida amal qilmoqda.

1.2.Bilvosita soliqlarning soliq tizimidagi tutgan o'rni va ahamiyati.

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning tub mohiyati to'laqonli bozor iqtisodiyotini shakllantirishdan iboratdir. Bu maqsadga erishishda bir tomondan davlat manfaatlarini, ikkinchi tomondan tadbirkorlik sub'ektlari manfaatlarini himoya qiladigan, shuningdek iqtisodiyotning rivojlanishi uchun xizmat qiladigan-soliq tizimini yaratilishi muhimdir.

Davlatimiz rahbari Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, «Printsipial muhim ustuvor vazifalardan biri soliq siyosatini yanada takomillashtirishdir»¹.

Albatta, soliq siyosatini takomillashtirishda bilvosita soliqlarning tadbirkorlik sub'ektlari iqtisodiy faoliyatiga ta'sirini kamaytirish, mamlakatimiz soliq tizimida echimini kutib turgan vazifalardan hisoblanadi.

Iqtisodiyotni tartiblash har bir davlatning oldida turgan muhim masalalardan biri hisoblanadi. Iqtisodiyotni tartiblashning turli xil usullari (ma'muriy, tashkiliy, psixologik hamda iqtisodiy) mavjud bo'lib, ularning orasida iqtisodiy usul bir tomondan ta'sirchanligi va samaradorligi bilan ikkinchi tomondan davlat faoliyatining mazmuniga hamohangligi bilan ajralib turadi. O'z navbatida iqtisodiy usul ham turli xil vositalar orqali amalga oshiriladi. Bular jumlasiga: narx; dotatsiya; kredit stavkasiga ta'sir etish; sanatsiya; soliq shu kabilar kiradi, o'z navbatida ushbu sanalganlardan dastlabki to'rttasi vaqtinchaligi va o'zgaruvchanligi bilan xarakterlansa, soliq tizimi orqali iqtisodiyotni tartibga solish ham samarali, ham ta'sirchan va uzoq vaqt amal qilishligi bilan ahamiyatlidir.

Soliqlar vositasida iqtisodiyotni tartibga solish masalalari o'tgan asrning 30-yillarida ingliz iqtisodchisi J.M. Keynsning keyinchalik uning izdoshlari tadqiqotlarida o'rin oldi. J.Keyns iqtisodiyotni tartibga solishning turli xil usullarini chuqur tadqiq etar ekan, soliqlar omiliga alohida e'tibor haratadi.

J.Keyns noklassik maktabi namoyondalaridan farqli ravishda soliqlar fa?at fiskal vosita emas, balki davlat tomonidan iqtisodiyotni boshharish vositasi deb haraganlar. Ammo, shu bilan birgalikda J.Keyns progressiv soliqqa tortish printsipi tarafdori bo'lib, u o'zining bu yondoshuvini ko'proq soliq undirish tadbirkorlarni riska asoslangan holda kapital sarflashga majbur etadi. Uning fikriga ko'ra faoliyat va iste'mol o'rtasidagi nomuvofiqlik natijasida kelib chiqadigan jamharmalarning to'liq band bo'lmasligi oqibatida iqtisodiy o'sishga ta'sir etadi. Shuning uchun jamharishga yo'naltirilgan mablag'larga nisbatan yuqori soliq stavkalarini

¹ Каримов И. А. Бизнинг бош мақсадимиз-жамятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислох этишдир. Т.: Ўзбекистон, 2005, -88 бет.

belgilash asosida ko'proq soliq undirish lozim deydi. Keynsning fikriga ko'ra davlat yuqori stavkalar asosida soliq undirish iqtisodiyotga ijobiy ta'sir etadi, ya'ni, byudjetga ko'proq moliyaviy resurslar jalb etilish hisobiga byudjet daromadlarini ko'paytirish orqali iqtisodiy muvozanatni ta'minlashga erishiladi, o'z navbatida soliq tushumlari kamayishi esa byudjetdan qilinadigan harajatlarni kamaytirishga majbur etadi, pirovardida iqtisodiyotda beqarorlikning yuzaga kelindi. Xo'sh bu erda bilvosita soliqlarni o'rni qanday bo'lish kerak? Keynsning samarali talab nazariyasiga ko'ra davlatning ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash va shu orqali qo'shimcha iste'molni yaratilishi mahsulotlarning realizatsiyasining oshishi oqibatida aylanishdan olinadigan soliqlar esa ko'proq fiskal xususiyatga ega bo'lib ular hisobiga byudjetga maksimal soliq undirishning moliyaviy asosi yaratiladi. Bundan tashhari davlat byudjet kamomadidan xavfsiramagan holda talabning oshishini ta'minlash degan Keynsning g'oyasi ham mamlakat miqyosida xizmatlarning kengayishi, ya'ni bilvosita soliqqa tortishning manbai yuzaga kelishni ifodalaydi. Ammo, ta'kidash o'rinliki, Keynsning yuqori soliqqa tortish nazariyasi bugungi kun iqtisodiy rivojlanishning holatida ijobiy samara bermaydi. Bozor munosabatlariga o'tishning dastlabki bosqichlarida muayyan darajada yuqori soliqqa tortish nazariyasi o'z mohiyatiga ega edi. Ya'ni, bu davrda tovar ishlab chiqaruvchilarning aksariyati monopol mavqeiga ega bo'lib, iqtisodiy tushkunlik davrida pulning qadrsizlanishi juda yuqori bo'lib, bozor kon'yukturasining bunday holatdaligi monopol korxonalarning bozorga taklif etayotgan tovar (xizmat, ish)ning juda yuqori asossiz ravishda narxni o'rnatgan holda sotishga sharoit yaratib bergan edi. Shunday sharoitda davlat tomonidan iqtisodiyotni tartiblashda soliqlar vositasining o'rnining oshishiga ob'ektiv zarurat tug'ildi. Bunda asosan yuqori stavkali bilvosita soliqlardan kengroq foydalanildi va o'tish davrining dastlabki vaqtlarida monopol ahamiyatdagi ishlab chiqaruvchilarning bozordagi munosabatlari birmuncha tartiblanishga erishildi.

Iqtisodiyotni soliqlar vositasida tartiblashda bilvosita soliqlar quyidagi afzalliklarga ega:

-Bilvosita soliqlar orqali xo'jalik yurituvchi sub'ektlardan ko'proq soliq undirish imkoniyatining mavjudligi moliyaviy resurslar boshharish imkonini beradi. Yuqori daromad olayotgan yoki bozorda muayyan darajada mavqega ega bo'lgan soliq to'lovchilarning moliyaviy resursining bir qismi markazlashgan pul fondiga olinadi va u boshqalarga (jamiyat uchun muhim bo'lgan ishlab chiqaruvchiga) dotatsiya, sanatsiyalash sifatida o'tkazilib, iqtisodiyot sub'ektlarining amal qilish holati va ularning tarkibi tartibga solish imkoniyati tuqiladi.

-Bilvosita soliqlar orqali davlat iqtisodiyotga makro va mikro darajada aralashish imkoniyatiga ega bo'ladi. Makrodarajada tartiblashda asosan aktsiz solig'i va bojxona boji muhim rol o'ynaydi. Aktsiz solig'i va bojxona boji orqali davlat birinchidan, iste'mol tarkibiga ta'sir etadi, ikkinchidan kapital oqimining yo'nalishiga ta'sir etish imkoniyatiga ega bo'ladi, uchinchidan, milliy iqtisodiyotda faoliyat ko'rsatuvchi ichki tovar ishlab chiqaruvchilarni chetdan mahsulotlarning konterventsiyasi(suqilib kirish)dan asraydi. To'rtinchidan, aktsiz solig'i va bojxona boji stavkalarini oshirish yoki pasaytirish orqali mamlakatning import va eksport operatsiyalarini hamda tovarlarning tranzit holda milliy hududdan o'tishni tartibga soladi, pirovardida import va eksport o'rtasidagi qoldig'ning musbat farqni oshirishning omili sifatida bilvosita soliqlarning roli oshishiga moddiy asos yaratiladi. Beshinchidan, bilvosita soliqlar orqali shuningdek, milliy bozorda iste'mol jarayonini hamda markazlashgan pul fondi orqali bilvosita soliqlarning mahalliy hududlarning moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojini qondirishda keng foydalaniladi. Ushbu holatlarga qisqacha izoh berishga harakat qilamiz. Ma'lumki, aktsiz solig'iga tortiladigan tovarlarni ro'yxati tizimda ularning zararlik xususiyatlari ham mezon sifatida asos qilinib olingan. Bu tovarlarni iste'mol qilish orqali (masalan, alkogol tamaki) aholingiz birinchidan, sog'lig'iga salbiy ta'sir etadi va ularni davlat tomonidan bepul davolash hamda profilaktoriya tadbirlari bilan bog'liq xarajatlarni taqazo etadi, boshqatomondan esa, bunday tovarlarni xususan, alkogolli mahsulotlarni iste'mol qilish oqibatida turli xil noxush holatlarni keltirib chiqarishi mumkin garchi, jahon hamjamiyatida bunday tovarlarni

batomom iste'mol qilish ta'qiqlanmagan bo'lsada, ammo ularni iste'moli turli xil vositalar, shu jumladan, soliqlar vositasida tartibga solib boriladi.

Davlatning iqtisodiy sohadagi muhim yo'nalishlaridan biri bu milliy bozorni himoyalash (proteksion) siyosati bo'lib, uni amalda ta'minlashning ma'muriy, psixologik hamda iqtisodiy usullardan keng foydalaniladiki, bunda bilvosita soliqlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Bilvosita soliqlar shuningdek, davlatning makrodarajadagi ta'sir vositasi sifatida hududlarning sotsial-iqtisodiy rivojlanishni muvofiqlashtirishda ham muhim rol o'ynaydi. Bu umumdavlat soliqlarini byudjet tizimining turli pog'onalari o'rtasida qayta taqsimlanishida ko'rish mumkin. Ma'lumki, davlatning soliq-byudjet siyosatidagi asosiy muhim yo'nalishlaridan biri byudjetlararo munosabatlarni iqtisodiy jihatdan tartibga solish hisoblanadi. Bu jarayon esa quyi byudjet bo'g'inlarining birlashtirilgan daromad manbalarining etarli emasligini e'tiborga olganda subtsidiyalar, o'zaro hisob-kitoblar hamda umumdavlat soliqlarining ayrim turlari bo'yicha ularning bir qismi o'zlariga qaytarilishi tarzida ta'minlanadi.

Biz yuqorida bilvosita soliqlar vositasida iqtisodiyotni tartiblash makro va mikrodarajada amalga oshirilishi qayd etib, makrodarajada tartiblashning ayrim xususiyatlari xususida to'xtalib o'tdik. O'z navbatida mikrodarajada tartiblash tizimida bilvosita soliqlarning rolini aniqlash birinchidan, bilvosita soliqlarning mohiyatini ochib berishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan ularning tartiblovchilik xususiyatidagi mavjud jarayonlarni yanada takomillashtirish uchun uslubiy asosga ega bo'ladi deb hisoblaymiz.

Bevosita soliqlar soliq to'lovchilarning faoliyatini rag'batlantira olish xususiyatiga ega bo'lib, bu soliqlar asosan soliq to'lovchi faoliyatining yakuniy bosqichi daromad vositasi ularning daromadining majburiy tartibda olinishi zarur bo'lgan miqdorning bir qismi o'zlariga qoldirilishi tufayli bu soliqlar rag'batlantiruvchi sifatida soliq to'lovchilar faoliyatiga ta'sir etish vositasida yuzaga chiqadi. To'g'ri soliqlardan farqli ravishda bilvosita soliqlar soliq to'lovchilar faoliyatini juda oz miqdorda rag'batlantirish timsolida yuzaga chiqishi

mumkin. Bu holat asosan qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha nollik stavkaning qo'llanishida ko'rinadi.

Bilvosita soliqlar shuningdek, daromadlarni muvofiqlashtirish vazifasini ham bajaradi. Bilvosita soliqlar orqali aholining boy qatlami qo'lidagi pul mablag'larini markazlashgan pul fondlariga jalb etish orqali birinchidan, iqtisodiyotda pul mablag'larining harakati boshharilishiga ijobiy ta'sir etilsa, ikkinchidan byudjetning daromadlar qismini ko'paytirish imkoniyati tuqiladi. Bilvosita soliqlarning bu xususiyati asosan aktsiz solig'i orqali namoyon bo'ladi. Aktsiz solig'i ayrim turdagi zeb-ziynat va qimmat baho tovarlarga, masalan, zargarlik buyumlari, «GM Uzbekiston» qo'shma korxonasi avtomobillarigava boshqaaktsiz osti tovarlariga yuqori stavkali aktsiz solig'i belgilanishi orqali bunday turdagi tovarlarni sotib oluvchi boy-badavlat aholini progressiv soliqqa tortish tamoyili realizatsiya etiladi. Bu masalaning bir tomoni bo'lib, u fiskal nuqati nazaridan soliqlarning o'zaro tenglik tamoyiliga ziddek ko'rinadiki, biroq masalaning boshqatomoni ham mavjudki, bunday tamoyil orqali aholining qo'lida muzlab (o'lik) yotgan pul mablag'lari markazlashgan pul fondlari orqali maqsadli investitsiyaga sarflanishi ta'minlanadi.

Har bir mamlakat iqtisodiyotida davlat byudjeti asosiy o'rin tutadi. Chunki byudjet barcha sohalarni qamrab olgani holda ularning nafaqat muayyan yil, balki kelgusidagi istiqboli belgilanishi bilan ahamiyatlidir. Davlat byudjeti, asosan soliqlar tushumi bilan shaklantirilar ekan, bilvosita soliqlar O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida asosiy o'rinni egallaydi.

1-jadval.**Maqsadli fondlarsiz davlat byudjeti daromadlari to'g'risida ma'lumot¹**

Asosiy byudjet ko'rsatkichlari	2010 yil	Foizda	2011 yil	Foizda	2012 yil	Foizda
Maqsadli fondlarsiz davlat byudjeti daromadlari	13116,4	100%	16178,5	100%	20614,1	100%
Shu jumladan: Bevosita soliqlar	3420,6	26,0	4238,6	26,2	5196,4	25,2
<u>Bilvosita soliqlar</u>	<u>6973,8</u>	<u>53,2</u>	<u>8656,9</u>	<u>53,5</u>	<u>11187,8</u>	<u>54,3</u>
Resurs soliqlari	1974,1	15,1	2308,9	14,3	2746,4	13,3
Boshqa daromadlar	747,9	5,7	974,1	6,0	1483,5	7,2


Maqsadli fondlarsiz davlat byudjeti daromadlarining tarkibiy tahlilidan ko'rinadiki, bilvosita soliqlardan byudjetga rejalashtirilgan tushum 2010 yilda 6973,8 mlrd. so'm, 2011 yilda 8656,9 mlrd. so'm bo'lsa, 2013 yilda 11187,8 mlrd. so'mni tashkil etmoqda. Jami byudjet daromadlaridagi salmog'i 2012 yilga kelib 54,3% ni tashkil etmoqda. Ushbu holat shuni tasdiqlaydiki, davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda bilvosita soliqlarning fiskal ahamiyati yuqori bo'lmoqda.

Mamlakatimizda soliq tizimi shakllanishiga juda ko'p vaqt ketmagan bo'lsa ham, soliq tizimimiz yil sayin yangilanib, takomillashib, rivojlanib bormoqda. hozirgi kunda butun dunyo mamlakatlarida davlatning aniq amal qiluvchi soliq tizimi mavjudligi uning yuksak darajada taraqqiy etganligining belgisi hisoblanadi. Shuning uchun soliq tizimini jahon andozalari darajasida shakllantirish va rivojlangan mamlakatlarning soliq amaliyotidagi ilor tajribalaridan soliq

¹ Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1887-sonli Qarori.

tizimimizda foydalanish bozor munosabatlariga o'tish shart-sharoitiga moslashishda alohida ahamiyatga egadir.

Davlat byudjeti daromadlarini asosiy qismini soliqlar va yig'imlar tashkil etadi. So'ngi yillarda mamlakatimizda soliq yuki sezilarli darajada pasaytirilganligiga haramasdan, davlat byudjetining daromadlar qismi bo'yicha ko'rsatkichlari to'liq bajarilmoqda va 2012 yil yakuniga ko'ra 0,4 foiz profitsit bilan bajarildi (1-rasm).



1-rasm. Davlat byudjeti ko'rsatkichlarining bajarilish darajasi, foizda¹.

Rasmdan ko'rinadiki, 2000-2004 yillar davomida mamlakatimiz davlat byudjeti taqchilligini -1,0 foizdan -0,4 foiz darajasiga qadar pasaytirishga, 2005-2008 yillar davomida esa davlat byudjeti taqchilligiga barham berib, davlat byudjeti profitsitini 0,1 foizdan 1,5 foizga qadar oshirishga erishildi. Keyingi yillarda mazkur jarayonlarga ham jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatishiga haramasdan, byudjet profitsitini saqlab qolishga erishilmoqda. Xususan, juda murakkab kechgan 2012 yilda ham maqsadga muvofiq yo'naltirilgan chora-tadbirlar natijasida byudjet daromadlari uning

¹ www.mf.uz. O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi ma'lumotlari.

xarajatlaridan ortish hajmi YaIMning 0,4 foizi darajasida bo'lishiga erishildi. Umuman olganda, davlat byudjeti sohasidagi bunday natijalarni qo'lga kiritishda mamlakatimiz iqtisodiyotini bosqichma-bosqich o'zgartirish va erkinlashtirish, ilgari davlat zimmasida bo'lgan bir qancha vazifalarning xususiy sektorga o'tkazish orqali davlat byudjeti xarajatlarini optimallashtirish, yangi sanoat yo'nalishlarining rivojlantirilishi hamda xususiy sektor moliyaviy holatining mustakamlanishi, shuningdek, uning mamlakat iqtisodiyotidagi roli va ulushining ortishi kabi omillar sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Tadqiqot ishimizning ushbu bobida qilingan nazariy mushohadalarimizni umumlashtirgan holda quyidagi xulosalarni qilish mumkin:

-Soliq kategoriyasi boshqaiqtisodiy kategoriyalar kabi iqtisodiy munosabatlarning majburiy to'lovlarning mazmunini anglatsada, biroq mazmunan o'ta murakkab jarayonni ifodalaydi. Soliq turlarini bevosita va bilvosita soliqlarga bo'lishning ilmiy asosi bu soliqlarning iqtisodiy mohiyatini ilmiy asosi bo'lsa, boshqa tomondan majburiy to'lovlar sifatida undirilayotgan soliq ob'ektlarining holati va harakatini ham aniqlash hisoblanadi.

-Bilvosita soliqlar deganda bizning fikrimizcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlar(soliq to'lovlar)ning xo'jalik faoliyatini yakunida mahsulot(xizmat, ish)larni realizatsiya qilinishi jarayonida ularning to'liq tannarxiga davlat tomonidan muayyan stavka asosida o'rnatiladigan soliqlarga aytiladi. Bilvosita soliqlar mahsulot tannarxiga qo'shilganligi tufayli soliq to'lovchining faoliyatiga katta ta'sir kuchiga ega bo'ladi va shu jihatdan bu soliqlarning soliq to'lovchining barcha faoliyatiga qattiq bog'liqligi yuzaga keladi.

-Evolutsion rivojlanishning tarixiy tadrijiy bosqichi shundan dalolat beradiki, soliqlar ijtimoiy iqtisodiy tuzilishiga qarabyoxud undirib olish manbaiga ko'ra bilvositava bevosita soliqlarga bo'lingan. Agar, bilvosita soliqlarning tarixiy shakllanish jarayoniga e'tibor bersak, boj to'lovlari dastlabki bilvosita majburiy to'lov sifatida yuzaga kelgan bo'lsa, aktsiz solig'i davlatchilikning keyingi sivilizatsiyadan bosqichlarida bilvosita soliq sifatida undirib boshlandi va davlat

g'aznasining asosiy daromad manbai sifatida sivilizatsiyaning barcha bosqichlarida soliq tizimida alohida ahamiyat kasb etib kelmoqda. Aslini olganda bilvosita soliqlarning yuzaga kelishi davlatchilikning paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lsa, ularning shakllanishi jamiyatlardagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, iqtisodiy tizimning turi, davlatning iqtisodiy katta tashqi siyosatining mazmuni asosida kechmoqda.

-Birinchii jahon urushi davrida g'arb mamlakatlarida siyosiy vaziyat aylanishdan va sotishdan soliq turlari joriy etishni taqazo etdi. Biroq, aylanishdan va sotishdan turlari fiskal xususiyatga ega bo'lib, rag'batlantirish xususiyatiga ega emas edi. Natijada mahsulotlarning qimmatlashuvi, ularning kamayishi, iste'molchi va ishlab chiqaruvchilarning norozichiligi yuzaga keltirdi. Buning echimi sifatida o'tgan asrning birinchi yarim yilligining oxirlarida aylanishdan va sotishdan olinadigan soliqlar o'rniga boshqabir bilvosita soliq qo'shilgan qiymat solig'i joriy etildi.

2-Bob. Bilvosita soliqlarni hisoblash mexanizmining amaldagi holati tahlili.

2.1. Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari, soliq solinadigan bazani belgilash va hisoblash tartibi.

2008 yil 1 yanvardan kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Soliq kodeksining 197-moddasiga asosan qo'shilgan qiymat solig'ining to'lovchilari bo'lib:

- Soliq solinadigan oborotlarga ega bo'lgan yuridik shaxslar;
- Zimmasiga O'zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan amalga oshirilayotgan soliq solinadigan oborotlar uchun qo'shilgan qiymat solig'i to'lash bo'yicha majburiyat yuklatiladigan yuridik shaxslar;
- Tovarlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga import qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar, o'z ehtiyojlari uchun bojsiz olib kirish normalari doirasida tovarlar olib kiruvchi jismoniy shaxslar bundan mustasno;
- Oddiy shirkat soliq solinadigan oborotlarni amalga oshirayotganda zimmasiga uning ishlarini yuritish yuklatilgan (ishonchli shaxs) sherik (ishtirokchi) - yuridik shaxs¹.

Quyidagilar qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilar hisoblanmaydi:

- notijorat tashkilotlar, bundan tadbirkorlik faoliyati doirasida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oborotlari;
- soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan yuridik shaxslar.

Yagona soliq to'lovini to'lovchilar bo'lgan yuridik shaxslar soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga yilning navbatdagi choragi boshlanguniga qadar bir oydan kechiktirmasdan, yangi tashkil etilayotgan yagona soliq to'lovini to'lovchilar bo'lgan yuridik shaxslar esa faoliyat boshlanguniga qadar taqdim etiladigan yozma bildirishga asosan ixtiyoriy asosda qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashi mumkin.

¹ Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси. -Т.: Адолат, 2010. 197-модда

Asosiy faoliyati bilan bir qatorda qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladigan boshqa faoliyat bilan shug'ullanadigan qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilari - yagona er soliqi to'lovchilar, belgilangan tartibda shu faoliyatdan qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari hisoblanadilar. Yuqorida ta'kidlangan soliq kodeksiga muvofiq qo'shilgan qiymat solig'i solish ob'ekti ikkiga bo'linadi:

1. Soliq solinadigan oborot;
2. Soliq solinadigan import.

Soliq solish maqsadida iste'molchilik maqsadi va qiymatiga ega bo'lgan hamma narsa (tovar, mahsulot, ko'chmas mulk, shu jumladan, binolar va inshootlar, shuningdek, elektr va issiqlik energiyasi, gaz, suv va shu kabilar) tovar hisoblanadi. Ishlarning sotilishida bajarilgan qurilish-montaj, ta'mirlash, ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik, texnologik, loyiha-qidiruv, restavratsiya qilish va boshqa ishlar qiymati soliq solish ob'ekti hisoblanadi.

Soliq solinadigan baza realizatsiya qilinayotgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati asosida, unga qo'shilgan qiymat solig'ini kiritmagan holda belgilanadi.

Tovarlar (ishlar, xizmatlar) tannarxidan yoki tovarlar olingan narxdan (tovarni olish bilan bog'liq xarajatlar hisobga olingan holda) past narxlarda realizatsiya qilingan taqdirda, soliq to'lovchiga o'z ehtiyojlari uchun tovarlar berilganda (ishlar bajarilganda, xizmatlar ko'rsatilganda), shuningdek tovarlar (ishlar, xizmatlar) bepul berilganda soliq solish maqsadlari uchun soliq solinadigan baza tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) tannarxidan yoki tovarlar olingan narxdan (tovarni olish bilan bog'liq xarajatlar hisobga olingan holda) kelib chiqib belgilanadi.

Tovarlar qayta ishlashga berilgan xom ashyo va materiallardan tayyorlangan taqdirda, soliq solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'ini kiritmagan holda ularni qayta ishlash xizmatlarining qiymati asosida, aktsiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha esa, ularni qayta ishlash xizmatlari qiymati asosida hisoblab chiqarilgan aktsiz solig'ini hisobga olgan holda belgilanadi.

Qurilish, qurilish-montaj va ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy ishlar, xizmatlar bo'yicha, shuningdek ob'ektlarni foydalanishga tayyor holda qurishda shartnomaviy narxlardan kelib chiqqan holda hisob-kitob hujjatlari haq to'lash uchun taqdim etilgan, bajarilgan va buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan ishlarning, xizmatlarning qo'shilgan qiymat solig'i kiritilmagan qiymati soliq solinadigan bazadir. Agar shartnomaga binoan bu ishlarni materiallar bilan ta'minlash majburiyati buyurtmachining zimmasida bo'lsa, ushbu materiallarga bo'lgan mulk huquqi buyurtmachining o'zida saqlanib qolgan taqdirda, bajarilgan hamda tasdiqlangan ishlarning buyurtmachi materiallarining qiymati kiritilmagan holdagi qiymati soliq solinadigan bazadir.

Import qilingan tovarlar realizatsiya qilinganda, soliq solinadigan baza realizatsiya qilinayotgan tovarlarning qo'shilgan qiymat solig'i kiritilmagan qiymatidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Bunda soliq solinadigan baza mazkur tovar import qilinganda qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish uchun qabul qilingan qiymatdan past bo'lishi mumkin emas.

Aktsiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan bazaga aktsiz solig'ining summasi kiritiladi.

Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar realizatsiya qilingan taqdirda, soliq solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'i summasini ham o'z ichiga oladigan, ularning realizatsiya qilish narxi bilan qoldiq qiymati o'rtasidagi ijobiy farq sifatida belgilanadi.

Mol-mulk moliyaviy ijaraga, shu jumladan lizingga berilganda, soliq solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'i summasini o'z ichiga oladigan, chiqib ketayotgan aktiv qiymati bilan uning balans (qoldiq) qiymati o'rtasidagi ijobiy farq sifatida belgilanadi, soliq to'lovchi tomonidan ishlab chiqarilgan tovarlar moliyaviy ijaraga (lizingga) berilganda esa, qo'shilgan qiymat solig'ini o'z ichiga oladigan, chiqib ketayotgan aktivning qiymati soliq solinadigan bazadir. Bunda chiqib ketayotgan aktivning qiymati buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanadigan, moliyaviy ijaraga beruvchining buxgalteriya hisobida aktiv sifatida e'tirof etiladigan summa tarzida belgilanadi.

Qurilishi tugallanmagan ob'ekt realizatsiya qilingan taqdirda, soliq solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'i summasini ham o'z ichiga oladigan, qurilishi tugallanmagan ob'ektni realizatsiya qilish narxi bilan balans qiymati o'rtasidagi ijobiy farq sifatida belgilanadi.

Kredit tashkiloti tomonidan garov bilan ta'minlangan majburiyatni qoplash hisobiga olingan mol-mulk realizatsiya qilingan taqdirda, soliq solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'i summasini o'z ichiga oladigan, realizatsiya qilish narxi bilan harzni qoplash hisobiga mazkur garov mol-mulki olingan qarz summasi o'rtasidagi ijobiy farq sifatida aniqlanadi.

Baholari (tariflari) davlat tomonidan tartibga solinishi nazarda tutilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiya qilinganda, soliq solinadigan baza belgilangan baholardan (tariflardan) kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Masalan,

Agar asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati hisobotda QQS xisobga olinib aks ettirilishicha 120,0 ming so'mni, eskirish - 50,0 ming so'mni, qoldiq qiymati 70,0 ming so'mni ($120,0 - 50,0$) va sotish narxi - 200,0 ming so'mni tashkil etsa, soliq solinadigan aylanma miqdori ($200,0 - 70,0$) = 130,0 ming so'mni tashkil etadi. QQS summasi esa ($130 \times 20 : 120$) = 21,66 ming so'mni tashkil etadi, u byudjetga to'lanishi lozim;

Agar asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati hisobotda QQS hisobga olinib aks ettirilishicha 120,0 ming so'mni, eskirish - 50,0 ming so'mni, qoldiq qiymati 70,0 ming so'mni ($120,0 - 50,0$) va sotish narxi - 70,0 ming so'mni tashkil etsa, soliq solinadigan aylanma miqdori ($70,0 - 70,0$) = 00,0 ming so'mni tashkil etadi. QQS summasi ham ($00,0 \times 20 : 120$) = 00,0 ming so'mni tashkil etadi, ya'ni soliq solinadigan aylanma yo'q;

Agar asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati hisobotda QQS hisobga olinib aks ettirilishicha 120,0 ming so'mni, eskirish - 50,0 ming so'mni, qoldiq qiymati 70,0 ming so'mni ($120,0 - 50,0$) va sotish narxi - 50,0 ming so'mni tashkil etsa, unda bu misolda ham soliq solinadigan aylanma yo'q, chunki sotish narxi qoldiq qiymatidan kam.

O'zbekiston Respublikasida qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 1992 yilda 30 foizni tashkil qilgani holda, bugunga qadar bir-necha marta o'zgartirildi. Jumladan, 1996 yilda 17 foizni, 1997 yilda 18 foizni, ayrim oziq-ovqat mahsulotlari turlariga (un, non, go'sht, sut va sut mahsulotlari) esa kamaytirilgan 10 foizli stavka belgilandi. 1999 yilda respublikada qo'shilgan qiymat solig'ining 3 xil stavkasi (20%, 15%, va 0%) amalda qo'llanildi. 2000 yildan hozirgi kungacha soliq Kodeksiga ko'ra respublikamizda 20 foizli va "0" foizli stavka qo'llanilib kelinmoqda

2- jadval

Qo'shilgan qiymatni aniqlash uslubi¹ (shartli so'mda)

№	Ko'rsatkichlar	Sohalar			
		Sanoat	Qurilish	Transport	Telekom munikatsiya
1.	Sotib olingan material qiymati	1000	1200	1500	2000
2.	Sotib olingan materiallarga tegishli qo'shilgan qiymat solig'i	200	240	300	400
3.	Mahsulot (xizmat. ish) realizatsiyasi	2000	2500	3000	4000
4.	Realizatsiyaga tegishli qo'shilgan qiymat solig'i	400	500	600	800
5.	Qo'shilgan qiymat	1000	1300	1500	2000
6.	Qo'shilgan qiymat solig'i	200	260	300	400

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 212-217 moddalariga muvofiq quyidagilar nol darajali stavka bo'yicha soliqqatortiladi:

-Tovarlarni chet el valyutasida eksportga realizatsiya qilish (qimmatbaho metallar bundan mustasno) oborotiga nol darajali stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi. (Tovarlarni O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq olib chiqish tovarlar eksportidir);

¹ Manba: Муаллиф томонидан тузилган.

-Chet el tarafi o'zarolik printsipligiga amal qilgan taqdirda, chet el diplomatik vakolatxonalari hamda ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarning rasmiy foydalanishi uchun, shuningdek bu vakolatxonalar diplomatik va ma'muriy-texnik xodimlarining, shu jumladan ular bilan birga yashayotgan oila a'zolarining, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuharosi bo'lmasalar hamda O'zbekiston Respublikasida doimiy yashayotgan bo'lmasalar, shaxsiy foydalanishi uchun realizatsiya qilinayotgan tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) nol darajali stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi.

-Bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq, "bojxona hududida qayta ishlash" bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlarni qayta ishlash bo'yicha bajarilgan ishlarga (ko'rsatilgan xizmatlarga), agar qayta ishlash mahsulotlari O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan tashhariga olib chiqiladigan bo'lsa, nol darajali stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi.

-Xalharo yo'nalishda tashishlar bo'yicha ko'rsatiladigan quyidagi xizmatlarni realizatsiya qilish oborotiga nol darajali stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi:

- tranzit yuklarni O'zbekiston Respublikasi hududi bo'ylab tashish. Tranzit yuklarni tashish jumlasiga yukning tranzitini amalga oshirish uchun chet ellik shaxslar bilan to'g'ridan-to'g'ri tuzilgan shartnomalar yoki xalharo (idoralararo) transport bitimlari hamda bojxona organlarining mazkur tranzit yuklar haqiqatda olib kirilganligi va olib chiqilganligi to'g'risida belgilari mavjud bo'lgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi hududi orqali chet el tranzit yuklarini tashish va ularga xizmat ko'rsatishga doir xizmatlar kiradi;

- yo'lovchilar, bagajlar, yuklar va pochtani xalharo yo'nalishda tashish. Agar jo'natish punkti yoki tayin etilgan punkt O'zbekiston Respublikasi hududidan tashharida joylashgan bo'lsa, tashishlar yagona xalharo tashish hujjatlari asosida rasmiylashtirilgan taqdirda, xalharo yo'nalishlarda tashish hisoblanadi.

- Suv ta'minoti, kanalizatsiya, sanitariya tozalash, issiqlik ta'minoti, gaz ta'minoti bo'yicha aholiga ko'rsatiladigan xizmatlarga, shu jumladan xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari aholi nomidan oladigan shuningdek idoraviy uy-joy

fondi uylarida yashayotgan aholi uchun O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining bo'linmalari tomonidan olinadigan ana shunday xizmatlarga nol darajali stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi.

Qo'shilgan qiymat solig'i summasi belgilangan stavkalar asosida quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$\text{Sqqs} = \text{Say} \times S/100$$

Bunda: Sqqs - iste'molchilardan undiriladigan soliq summasi;

Say - soliqqatortiladigan aylanma;

S - qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi.

Tovarlar (ishlar, xizmatlar) qo'shilgan qiymat solig'ini o'z ichiga olgan narxlar va tariflar bo'yicha sotilganida - soliq quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$\text{Sqqs} = \text{Tq} \times S / (S + 100)$$

Bunda: Tq - qo'shilgan qiymat solig'i ham hisobga olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) qiymati.

Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan yoki qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni sotadigan korxonalar erkin (shartnomaviy) narx va tarifga qo'shilgan qiymat solig'i summasini qo'shmaydilar. Bunday tartib amaldagi qonunchilikka muvofiq soliq solishning alohida tartibi ko'zda tutilgan yuridik shaxslarga nisbatan ham qo'llaniladi.

Qo'shilgan qiymat solig'ining davlat byudjeti daromadlaridagi salmog'i¹

Ko'rsatkichlar		2010 yil	2011 yil	2012 yil	2013 yil (Reja)
		mlrd. so'm	mlrd. so'm	mlrd. so'm	mlrd. so'm
Daromadlar, davlat maqsadli jamharmalarisiz – jami		13 116,4	16 178, 5	20614,1	25104,9
1. Bilvosita soliqlar		6973,8	8 656, 9	11187,8	13039,4
1.1	<u>Qo'shilgan qiymat solig'i</u>	<u>3988</u>	<u>5228,7</u>	<u>6784,5</u>	<u>7737,8</u>
1.2	Aktsiz solig'i	2191,0	2481,7	3115,5	3726,5
1.3	Bojxona bojlari	479,3	515,9	732,4	992,6
1.4	Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq.	315,5	430,6	555,4	582,5

Soliq solinadigan oborotlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i soliq solinadigan baza va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i soliq solinadigan oborot bo'yicha hisoblab chiqarilgan soliq summasi hisobga olinadigan soliq summasi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Tovarlarni import qilish bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ining summasi soliq solinadigan baza va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'ining hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa - yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Soliq to'lovchilar, bundan kredit va sug'urta tashkilotlari mustasno, qo'shilgan qiymat solig'ining hisob-kitobi bilan bir vaqtda soliq davri mobaynida olingan va realizatsiya qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha hisobvara-q-

¹ www.mf.uz. O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi ma'lumotlari.

fakturalar reestrlarini taqdim etadi. Hisobvara-q-fakturalar reestrining shakli O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash quyidagicha amalga oshiriladi:

Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi bo'lgan mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan - qo'shilgan qiymat solig'i hisob-kitobini taqdim etish uchun belgilangan kundan kechiktirmay;

Mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan - har oyda, keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay.

Import qilinadigan tovarlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

Agar korxona qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan faoliyat turi bilan bir qatorda bunday soliqqatortiladigan faoliyatni ham amalga oshiradigan bo'lsa, unda u faoliyatning bunday turlari bo'yicha xarajatlar va natijalarning alohida hisobini yuritishi kerak.


Agar korxona etkazib berilishi qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladigan va bunday soliqqatortilmaydigan bir xildagi mahsulotni ishlab chiqaradigan bo'lsa, unda bunday holda xarajatlarning ajratib ko'rsatilishi soliq solinadigan aylanmaning jami aylanma summasidagi salmog'iga qarabamalga oshiriladi.

2.1.Aktsiz solig'i to'lovchilari, soliq solinadigan baza va hisoblash tartibi

Aktsiz solig'i respublikamizda 1992 yildan boshlab joriy etilishiga O'zbekiston Respublikasining 1991 yil 15 fevraldagi «Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to'g'risida»gi qonunga 1992 yil 14 yanvarda kiritilgan (N:521-XII sonli O'zR qonuni) o'zgarishlar huquqiy asos bo'ldi. Aktsiz solig'i bu sof daromadning narxda va qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladigan bazada xisobga olinadigan, bilvosita soliq sifatida byudjetga o'tkaziladigan (undiriladigan) bir qismidan iboratdir. Hozirgi kunda aktsiz solig'i O'zbekiston

Respublikasi Soliq kodeksining VIII bo'lim, 229-241 moddalari bilan undiriladi va huquqiy tartibga solib turiladi.

Xozirgi kunda respublikamizda amal kilayotgan aktsiz solig'ini ikkiga, ya'ni O'zbekiston Respublikasi hududida aktsiz solig'iga tortiladigan tovarlarni ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslardan olinadigan aktsiz solig'iga hamda O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan aktsiz solig'iga tortiladigan tovarlar uchun yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan aktsiz solig'iga bo'lishimiz mumkin.



2-rasm. O'zbekiston Respublikasida aktsiz solig'i to'lovchilar.

Yuqoridagi rasm ma'lumotlariga asosan aktsiz solig'i to'lovchilari avvalo, aktsiz solig'iga tortiladigan tovarlarni ishlab chiqarish yoki sotish bilan shug'ullanishiga ko'ra, ikkinchi tomondan esa respublikamizda ishlab chiqilgan tovarlar bo'yicha, Respublikamiz xududiga olib keltirilgan (import) tovalar bo'yicha, Respublikamiz xududidan chiqarib ketiladigan ba'zi tovarlar bo'yicha hamda aktsizga tortilgan tovarlarni ishlab chiqarish bo'yicha aktsiz solig'i to'lovchilari tasniflanadi.

Ta'kidlash joizki hozirda respublikamizda aktsiz to'lanadigan tovarlar realizatsiyasidan tushgan pul mablag'larining hisobini yuritish va nazorati 2004 yilning 26 iyulida Adliya vazirligidan 1390-son bilan ro'yxatga olingan "Ayrim turdagi aktsizli tovarlarni ishlab chiqarish va sotishning hisob tizimi to'g'risidagi" Nizomga muvofiq tartibga solinadi. Mazkur nizom ichki bozorda yangi

avtomobillar, alkogolli va tamaki mahsulotlari, o'simlik moyi, avtomobil benzini, dizel yoqilg'isini sotish, savdo tushumini bankka topshirish va banklar tomonidan ko'rsatilgan tovarlarni sotishdan olingan ushbu tushumni yuridik shaxslarning bank hisob rahamlariga qayd etish tartibini, shuningdek ishlab chiqarish hajmining aktsizli tovarlarni sotish hajmiga muvofiqligi monitoringini amalga oshirish tartibini belgilaydi.

4-jadval

Aktsiz solig'ining davlat byudjeti daromadlaridagi salmog'i¹

Ko'rsatkichlar		2010 yil	2011 yil	2012 yil	2013 yil (Reja)
		mlrd. so'm	mlrd. so'm	mlrd. so'm	mlrd. so'm
Daromadlar, davlat maqsadli jamharmalarisiz – jami		13 116,4	16 178, 5	20614,1	25104,9
1. Bilvosita soliqlar		6973,8	8 656, 9	11187,8	13039,4
1.1	Qo'shilgan qiymat solig'i	3988	5228,7	6784,5	7737,8
1.2	<u>Aktsiz solig'i</u>	<u>2191,0</u>	<u>2481,7</u>	<u>3115,5</u>	<u>3726,5</u>
1.3	Bojxona bojlari	479,3	515,9	732,4	992,6
1.4	Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq.	315,5	430,6	555,4	582,5

Aktsiz solig'ining to'g'ri hisoblab yozilishi va byudjetga to'lanishi ustidan nazoratni Davlat soliq xizmati organlari O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, O'zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi qonuni, yuqorida ko'rsatib o'tilgan Yo'riqnoma va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, byudjet daromadlarining asosiy qismini aktsiz solig'idan tushgan soliqlar hisobidan shakllantiriladi. har yili davlat byudjet parametrlari ko'rsatkichlari to'g'risida qaror qabul qilinadi. Bunda byudjet daromadlarini shakllantiruvchi soliqlarning barcha turlari bo'yicha prognoz miqdorlari

¹ www.mf.uz. O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi ma'lumotlari.

belgilanadi. Bilvosita soliq tarkibiga kiruvchi aktsiz solig'i ham shular jumlasidandir.

Aktsiz osti tovarlari ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori asosida belgilanadi hamda belgilangan tartibda soliq to'lovchilarga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi tomonidan etkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 25-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2013 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-1887-sonli qarori¹ga asosan O'zbekiston Respublikasida 2013 yil uchun aktsiz soliqi stavkalari belgilandi. Aktsiz solig'i stavkalari tovarning qiymatiga nisbatan foizlarda (advalor) va (yoki) naturada ifodalangan o'lchov birligiga mutlaq summada (qat'iy) belgilanadi.

Soliq kodeksining 229-moddasiga muvofiq, aktsiz solig'i to'lovchilar bo'lib quyidagi yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadi:

- O'zbekiston Respublikasi hududida aktsiz solig'i solinadigan tovarlarni (aktsiz to'lanadigan tovarlarni) ishlab chiqaruvchilar;

- O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga aktsiz to'lanadigan tovarlarni import qiluvchilar;

- Oddiy shirkat aktsiz to'lanadigan tovar ishlab chiqargan taqdirda, oddiy shirkat shartnomasining oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan sherigi (ishtirokchisi).

Aktsiz to'lanadigan tovarlarning ayrim turlari bo'yicha aktsiz to'lanadigan tovarlar ishlab chiqaruvchi bo'lmagan shaxs O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga binoan aktsiz solig'ini to'lovchi etib belgilanishi mumkin.

Soliq kodeksining 230-moddasiga muvofiq, quyidagi operatsiyalar aktsiz solig'i solinadigan ob'ekt hisoblanadi:

- 1) aktsiz to'lanadigan tovarlarni realizatsiya qilish, shu jumladan:
 - tovarni sotish (jo'natish);

¹ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2012 й., 52-сон, 587-модда

- garov bilan ta'minlangan majburiyat bajarilmagan taqdirda, garovga qo'yilgan aktsiz to'lanadigan tovarlarni garovga qo'yuvchi tomonidan topshirish;
- aktsiz to'lanadigan tovarlarni bepul topshirish;
- aktsiz to'lanadigan tovarlarni ish beruvchi tomonidan ish haqi hisobiga yollangan xodimga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda topshirish yoki hisoblangan dividendlar hisobiga yuridik shaxsning muassisiga (ishtirokchisiga) topshirish;
- aktsiz to'lanadigan tovarlarni qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda boshqatovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) ayirboshlash uchun topshirish;

2) aktsiz to'lanadigan tovarlarni yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa yoki pay badali tariqasida yoxud oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha sherikning (ishtirokchining) hissasi sifatida topshirish;

3) aktsiz to'lanadigan tovarlarni yuridik shaxsning ishtirokchisiga (muassisiga) u yuridik shaxs tarkibidan chiqqan (chiqib ketgan) taqdirda yoki yuridik shaxs qayta tashkil etilganligi, tugatilganligi (bankrotligi) munosabati bilan topshirish, shuningdek oddiy shirkat shartnomasi doirasida ishlab chiqarilgan aktsiz to'lanadigan tovarlarni mazkur shartnoma sherigiga (ishtirokchisiga) uning shartnoma ishtirokchilari umumiy mulkidagi mol-mulkdan ulushi ajratib berilgan yoki bunday mol-mulk taqsimlangan taqdirda topshirish;

4) aktsiz to'lanadigan tovarlarni ulush qo'shish asosida qayta ishlashga topshirish, shuningdek ulush qo'shish asosida xom ashyo va materiallarni, shu jumladan aktsiz to'lanadigan xom ashyo va materiallarni qayta ishlash maqsuli bo'lgan aktsiz to'lanadigan tovarlarni ishlab chiqaruvchi tomonidan qayta ishlashga berilgan xom ashyo va materiallarning mulkdoriga topshirish;

5) ishlab chiqarilgan va (yoki) qazib olingan aktsiz to'lanadigan tovarlarni o'z ehtiyojlari uchun topshirish;

6) aktsiz to'lanadigan tovarlarni O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga import qilish.

Quyidagilarga aktsiz solig'i solinmaydi:

1) aktsiz to'lanadigan tovarlarni ularning ishlab chiqaruvchilari tomonidan eksportga realizatsiya qilishga, bundan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasi tomonidan belgilanadigan aktsiz to'lanadigan tovarlarning ayrim turlari mustasno;

2) keyinchalik O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan olib chiqib ketilishi sharti bilan "bojxona hududida qayta ishlash" bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlardan ishlab chiqarilgan qayta ishlash mahsuli bo'lgan aktsiz to'lanadigan tovarlarni topshirishga;

3) O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga:

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda insonparvarlik yordami sifatida;

- davlatlar, hukumatlar, xalharo tashkilotlar tomonidan hayriya yordami maqsadida, shu jumladan texnik ko'mak ko'rsatish maqsadida;

- O'zbekiston Respublikasining xalharo shartnomalari bo'yicha xalharo va chet el hukumat moliya tashkilotlari tomonidan berilgan zayomlar (kreditlar) mablag'lari hisobiga, shuningdek grantlar hisobiga yuridik shaxslar tomonidan olib kirilayotgan, aktsiz to'lanadigan tovarlarni import qilishga;

4) aktsiz to'lanadigan tovarlarni O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga aktsiz solig'i solinmaydigan tovarlarni olib kirish normalari doirasida jismoniy shaxslar tomonidan import qilishga. O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga aktsiz solig'i solinmaydigan tovarlarni jismoniy shaxslar tomonidan olib kirish normalarining eng yuqori chegarasi qonun hujjatlarida belgilanadi;

5) vakolatli davlat organining yozma tasdiqi mavjud bo'lgan taqdirda, telekommunikatsiyalar operatorlari va tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalarini sertifikatlashtirish bo'yicha maxsus organ tomonidan olinadigan tezkor-qidiruv tadbirlari tizimi texnik vositalarini import qilishga.

Soliq kodeksining 231-moddasiga muvofiq, aktsiz to'lanadigan tovarlar oluvchiga jo'natilgan (topshirilgan) kun aktsiz to'lanadigan tovarlarga doir soliq solinadigan operatsiyalar amalga oshirilgan sanadir.

Garovga qo'yilgan aktsiz to'lanadigan tovarlar garovga qo'yuvchi tomonidan topshirilgan taqdirda, garov narsasiga bo'lgan mulk huquqi o'tgan sana garovga qo'yuvchi uchun realizatsiya qilish oboroti amalga oshirilgan sanadir.

Import qilinayotgan aktsiz to'lanadigan tovarlar bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazilgan sana ularga doir operatsiya amalga oshirilgan sanadir.

Aktsiz solig'ining stavkalari mutlaq summada (qat'iy) belgilangan aktsiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan baza aktsiz to'lanadigan tovarlarning naturada ifodalangan hajmi asosida aniqlanadi.

Aktsiz solig'ining stavkalari foizlarda (advalor) belgilangan ishlab chiqarilayotgan aktsiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha realizatsiya qilingan aktsiz to'lanadigan tovarlarning aktsiz solig'i hamda qo'shilgan qiymat solig'i kiritilmagan qiymati soliq solinadigan bazadir.

Ish haqi hisobiga, hisoblab chiqarilgan dividendlar hisobiga, bepul yoki boshqatovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) ayirboshlash uchun beriladigan aktsiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha, shuningdek tovarlar tannarxidan past narxlarda realizatsiya qilingan taqdirda soliq to'lovchi tovarlarni topshirish paytida uning haqiqiy tannarxidan kam bo'lmagan darajada belgilaydigan narx asosida hisoblangan qiymat soliq solinadigan bazadir.

Qayta ishlashga berilgan xom ashyo va materiallardan ishlab chiqarilgan aktsiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan baza aktsiz to'lanadigan tovarlarni ishlab chiqarishga doir ishlar qiymatini hamda qayta ishlashga berilgan xom ashyo va materiallar qiymatini o'z ichiga oladi.

Aktsiz solig'ining stavkalari foizlarda (advalor) belgilangan import qilinayotgan aktsiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan baza bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanadigan bojxona qiymati asosida belgilanadi.

Aktsiz solig'ining stavkalari mutlaq summada (qat'iy) belgilangan aktsiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan baza aktsiz to'lanadigan tovarlarning naturada ifodalangan hajmi asosida quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$ASS = S \times A,$$

Bunda:

S - tegishli o'lchov birliklarida sotilgan mahsulotning fizik hajmi;

A - aktsiz solig'ining qat'iy stavkasi, o'lchov birligiga so'mlarda.

Pivo, alkogolli va tamaki mahsulotlariga aktsiz solig'ini hisoblab chiqarish uchun soliq solinadigan oborot quyidagi formula bo'yicha belgilanadi:

$$O = S \times 100 / (100-A),$$

bu erda:

O - soliq solinadigan oborot;

S - bojxona qiymati;

A - aktsiz solig'i stavkasi.

O'zbekiston Respublikasi hududiga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan olib kiriladigan, aktsiz to'lanadigan tovarlarga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlariga ko'ra ro'yxatlar va stavkalar bo'yicha aktsiz solig'i solinadi.

Aktsiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha aktsiz solig'i bojxona xizmatlari tomonidan so'mlarda undiriladi va har 5 kunda respublika byudjetiga kiritiladi.

Olib kiriladigan, aktsiz to'lanadigan tovarlarga aktsiz solig'ining hisobi va uning byudjetga kelib tushishi ustidan nazoratni O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmatining hududiy boshharmalari amalga oshiradi.

Aktsiz to'lanadigan tovarlar olib kiruvchi, mulkchilik shaklidan qat'i nazar yuridik shaxslar, shuningdek jismoniy shaxslar aktsiz solig'ini to'lovchilar hisoblanadi. Bunda, agar qonun hujjatlarida boshqanarsa ko'zda tutilmagan bo'lsa, istalgan manfaatdor shaxs to'lovchi uchun bojxona to'lovlarini to'lashga haqlidir.

O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan tovarlar bo'yicha aktsiz solig'ini hisoblab chiqarish uchun soliq solish ob'ekti bo'lib bojxona yuk deklaratsiyasining 45-ustunida ko'rsatilgan, tovarning bojxona rasmiylashtiruv paytida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo'yicha so'mlarda qayta hisoblangan tovarning bojxona qiymati hisoblanadi.

Aktsiz solig'i summasi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$A_{miq} = B_q \times A_{st} / 100,$$

bu erda:

A_{miq} - aktsiz solig'i summasi

B_q - bojxona qiymati;

A_{st} - aktsiz solig'i stavkasi.

Olib kiriladigan, aktsiz to'lanadigan alohida turdagi tovarlar bo'yicha aktsiz solig'i summasi tovarning bojxona qiymatidan foizlarda yoki bir birlik o'lchovi uchun AQSh dollarlarida belgilanadi.

Majburiy ravishda markalanadigan, olib kiriladigan aktsiz to'lanadigan tovarlarga aktsiz solig'ini to'lovchilar aktsiz markalarini xarid qilish cho'ida kontrakt (bayonot berilgan) qiymatidan hisoblangan aktsiz solig'i summasining 100 foizini to'laydilar, bunda aktsiz markalarining nominal qiymati aktsiz solig'i summasidan ortiq miqdorda to'lanadi, mablag'lar belgilangan tartibga ko'ra respublika byudjetiga kirim qilinadi.

Markalangan, aktsiz to'lanadigan tovarlar olib kirilganda aktsiz solig'i summasi bojxona qiymatidan kelib chiqib qayta hisoblanadi.

To'lanadigan aktsiz solig'i summasini hisoblab chiqarish bojxona yuk deklaratsiyasi va unga doir qo'shimcha varaqlarda tegishli tartib asosida amalga oshiriladi.

Soliq yukining miqdori ko'p jihatdan amal qilayotgan soliq stavkalariga bog'liq bo'lib, stavkalarni belgilashda soliq siyosati bilan talab va taklif elastikliklari o'rtasidagi aloqadorlikni hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o'rinda shuni eslatish lozimki, elastiklik koeffitsienti bu boshqa omillar ta'siri o'zgaras bo'lganda bironta iqtisodiy omilning nisbiy o'zgarishi natijasida tadqiq qilinayotgan iqtisodiy ko'rsatkichning unga bog'liq ravishda nisbiy o'zgarishini ko'rsatadi. Demak, narxga nisbatan talab kuchliroq o'zgarsa, talab elastik bo'ladi yoki taklifning o'zgarish darajasi narxning o'zgarish darajasidan yuqori bo'lsa,

taklif elastik bo'radi¹. Endi quyida keltiriladigan ma'lumotlar asosida amaliyotda aktsiz solig'ining hisoblanishi mahsulot ishlab chiqaruvchilarga va ushbu mahsulotni sotib oluvchilarga qanday ta'sir o'tkazishini yoki sodda qilib aytganda aktsiz solig'i yukini ular o'rtasida taqsimlanishini ko'rib chihamiz.

5-jadval

Toshkent shahridagi “O'zbekiston shampani” korxonasi tomonidan ishlab chiqarilgan va sotilgan aktsiz to'lanadigan mahsulotlar to'g'risidagi ma'lumot²


Yillar	Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi (taklif)	Bir birlik mahsulot narxi(aktsiz solig'ihisoblangandan keyin)	Sotilgan mahsulot hajmi (talab)	Bir birlik mahsulot narxi (aktsiz solig'i hisoblangunga qadar)
2005	5950,87	4,88	16614,16	4,14
2006	8129,25	7,56	17765,42	6,3
2007	15690,18	8,92	14299,18	7,43
2008	17304,16	13,5	7579,25	11,25
2009	19317,42	25,42	4256,65	21,18
2010	20052,63	32,95	4325,71	27,46

5-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, 2005 yilda bir birlik (dekalitr) mahsulot narxi 4,88 ming so'mga, aktsiz solig'isiz 4,14 so'mga teng bo'lganda sotilgan mahsulot hajmi 16614,16 dekalitr teng bo'lgan bo'lsa, ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi 5950,87 dekalitrغا teng bo'lgan. 2009 yilda esa bir birlik mahsulot narxi 25,42 so'mga, aktsiz solig'isiz 21,18 ming so'mga teng bo'lganda sotilgan mahsulot hajmi 4256,65 dekalitrغا teng bo'lgan bo'lsa, ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi 19317,42 dekalitrغا teng bo'lgan.

Ushbu korxonalarining ma'lumotlarini tahlil qilish asosida taklif bilvosita chizig'ini aktsiz solig'ining turli darajadagi stavkalaridagi grafiklarini hamda talab bilvosita chizig'ining grafigini keltiramiz (3-rasm).

¹ Ўлмасов А. Иқтисодиёт асослари. Тошкент, «Меҳнат»-1997. 60-б.

² Korxona hisobot ma'lumotlari asosida muallifning hisob-kitobi.



3-rasm. Talab va taklif bilvosita chizig'i¹

Rasmda tasvirlangan taklif bilvosita chizig'i S dan aktsiz solig'i hisoblangandan keyin siljib S1 holatga o'tganligini hamda tovarning bozor narxi oshgan sayin ushbu sanoat mahsulotini ishlab chiqarish hajmi mos ravishda oshib borganligini ko'ramiz.

Shuningdek talab bilvosita D chizig'ida buning teskarisini ko'rishimiz mumkin, ya'ni tovarning bozor narxi oshgan sayin unga bo'lgan talab kamayib borgan, boshqacha qilib aytganda tovarning sotuv hajmi qishargan. M nuqta aktsiz solig'i hisoblangunga qadar bo'lgan taklif bilvosita chizig'i bilan talab bilvosita chizig'ining kesishish nuqtasi bo'lib, iqtisodiy nazariya tili bilan aytganda ushbu sanoat mahsulotiga bo'lgan talab va taklifning soliq hisoblangunga qadar bo'lgan muvozanat holatini belgilaydi.

S nuqta esa aktsiz solig'i hisoblangandan keyingi taklif bilvosita chizig'i bilan talab bilvosita chizig'ining kesishish nuqtasi bo'lib, ushbu sanoat mahsulotiga bo'lgan talab va taklifning soliq hisoblangandan keyingi muvozanat

¹ "O'zbekiston shampani" korxonasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

holatini belgilaydi. V nuqta S1 taklif bilvosita chizig'i bilan D talab bilvosita chizig'ining kesishish nuqtasi, ya'ni muvozanat holatida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga teng bo'lgan taklif bilvosita chizig'idagi baho (aktsiz solig'i hisoblangunga qadar bo'lgan) miqdorini belgilaydi. Boshqacha qilib aytganda, V nuqta tovarga bo'lgan talabning baho darajasiga shunday mosligini bildiradiki, bunda baho aktsiz solig'i hisoblangunga qadar bo'lgan muvozanat holatidan past bo'lgan va iste'molchi bahoni muvozanat holatiga etguncha o'sishiga tayyor bo'lgan.

Yuqorida biz ko'rib chiqayotgan misolda SV miqdor umumiy aktsiz solig'i yukining ko'rsatadi $SF = \Delta_{ist}$ va $FV = \Delta_{ich}$ miqdorlar ishlab chiqaruvchi va iste'molchi o'rtasida haqiqiy soliq yukini taqsimlanishini bildiradi. Haqiqatda hisoblangan aktsiz solig'i SM miqdordir bu to'g'ridan to'g'ri iste'molchi zimmasiga tushmoqda, lekin bu soliqning joriy etilishi natijasida ishlab chiqarish hajmi MV miqdorga pasaygan buning oqibatidagi yo'qotish ishlab chiqaruvchi zimmasiga tushgan.

Bu erda iste'molchi zimmasiga:

$$\Delta_{ist} = SV - FB$$

ishlab chiqaruvchi zimmasiga:

$$\Delta_{ich} = SV - SF$$

Shunday qilib soliq yukining taqsimlanishi tovarga bo'lgan talab va taklif elastikligiga teskari mutanosibdir. Albatta, kundalik ehtiyoj mollariga(masalan: un, tuz, yog') bo'lgan talab narx bo'yicha elastik emas va shu sababli soliqni yuki to'liq iste'molchi zimmasiga tushadi. Bunday holatda aktsiz solig'ini haqiqiy to'lovchilari aholi hisoblanadi. Soliqning joriy etilishi natijasida chakana narxning o'sishi orqali ularning kundalik xarajatlari ortishiga olib keladi. Lekin ko'pgina hollarda og'ir sharoitda ishlayotgan sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarda boshqacha holatni ko'rish mumkin. Bunday korxonalar chakana narxlarni oshirib, barqaror sotish hajmini saqlash imkoniyatlariga ega emaslar. Ushbu holatda korxona tomonidan ishlab chiqargan tovarga bo'lgan talab elastik

bo'lsa, aktsiz solig'i yuki asosan ishlab chiqaruvchi zimmasiga tushadi va uning foydasining kamayishiga olib keladi.

Yuqoridagi aktsiz solig'i bilan tovarga bo'lgan talab va taklifning turli holatlardagi bog'liqliklarning ishlab chiqarish hamda iste'molga qiladigan ta'sirlari tahlil qilinishi natijasida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- hozirgi iqtisodiyotimizda erishilgan barqaror muvozanat sharoitida soliq tizimini isloq qilish, shuningdek aktsiz solig'ini qo'llash nafaqat byudjetni to'ldirish nuqtai nazaridan, balki aholi farovonligiga ta'siri nuqtai nazaridan ham ko'rib chiqishni talab etadi.

- talab va taklifning muvozanatidan vujudga keladigan bozor narxlari darajasini tahlil qilish asosida alohida guruh tovarlarga aktsiz solig'i belgilashda uning tabiati va iqtisodiy mohiyatidan kelib chiqish zarur.

Aktsiz solig'ini hisoblab chiqarish soliq solinadigan bazadan va aktsiz solig'ining belgilangan stavkalaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Aktsiz solig'ining hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga yilning har choragida, soliq davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Aktsiz solig'i summasi byudjetga quyidagi muddatlarda to'lanadi:

joriy oyning 13-kunidan kechiktirmay - joriy oyning birinchi o'n kunligi uchun;

joriy oyning 23-kunidan kechiktirmay - joriy oyning ikkinchi o'n kunligi uchun;

kelgusi oyning 3-kunidan kechiktirmay - hisobot oyining qolgan kunlari uchun.

Import qilinadigan tovarlar bo'yicha aktsiz solig'ini to'lash bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

Aktsiz markalari bilan tamalanishi lozim bo'lgan import qilinadigan aktsiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha aktsiz solig'i aktsiz markalari olinguniga qadar to'lanadi.

Yuqorida ko'rib o'tilgan qo'shilgan qiymat solig'i va aktsiz solig'idan tashhari bilvosita soliqlar tarkibida transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq ham davlat byudjeti daromadlari tarkibida alohida ahamiyatga ega.

6-jadval

Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqning davlat byudjeti daromadlaridagi salmog'i¹

Ko'rsatkichlar		2010 yil	2011 yil	2012 yil	2013 yil (Reja)
		mlrd. so'm	mlrd. so'm	mlrd. so'm	mlrd. so'm
Daromadlar, davlat maqsadli jamharmalarisiz – jami		13 116,4	16 178, 5	20614,1	25104,9
1. Bilvosita soliqlar		6973,8	8 656, 9	11187,8	13039,4
1.1	Qo'shilgan qiymat solig'i	3988	5228,7	6784,5	7737,8
1.2	Aktsiz solig'i	2191,0	2481,7	3115,5	3726,5
1.3	Bojxona bojlari	479,3	515,9	732,4	992,6
1.4	<u>Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq.</u>	<u>315,5</u>	<u>430,6</u>	<u>555,4</u>	<u>582,5</u>

Yuridik va jismoniy shaxslarga transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gazni avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalari orqali realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqni to'lovchilardir.

Avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalari deganda avtomobillarga kompressor vositasida gaz to'ldirish, avtomobillarga yoqilg'i quyish va avtomobillarga gaz quyish shoxobchalari tushuniladi.

Transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gazni realizatsiya qilish soliq solish ob'ektidir.

¹ www.mf.uz. O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi ma'lumotlari.

Transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gazning natura holidagi realizatsiya qilingan hajmi soliq solinadigan bazadir

Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq summasi transport vositalari uchun yoqilg'i quyish shoxobchalari orqali realizatsiya qilinadigan benzin, dizel yoqilg'isi va gazning narxida hisobga olinadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 25-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2013 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-1887-sonli qarori¹ga asosan O'zbekiston Respublikasida 2013 yil uchun transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq stavkalari belgilandi.

7-jadval

Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq soliq stavkalari

№	Iste'molga soliq	Stavkasi (so'mda)
1.	Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi uchun	1 litrga 240 so'm
2.	Transport vositalariga suyultirilgan gaz uchun	1 litrga 165 so'm
3.	Transport vositalariga siqilgan uchun	1 kub metrga 200 so'm

Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqning hisob-kitobi joriy o'n kunlik to'lovlar hisobga olingan holda yoqilg'i quyish shoxobchalari joylashgan erdagi davlat soliq xizmati organlariga har chorakda, soliq davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa - yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

¹ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2012 й., 52-сон, 587-модда

Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqni to'lash transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiya qilingan oyning o'n kunligi tugaganidan keyingi uchinchi kundan kechiktirmay, yoqilg'i quyish shoxobchalari joylashgan erda har o'n kunda amalga oshiriladi.

2.3. Bilvosita soliqlar bo'yicha soliq yuki va uning soliqqato'lovchilarga ta'siri.

Butun jahon hamjamiyatida kuzatilayotgan moliyaviy inqirozning ikkinchi to'lqini kuzatilayotgan sharoitida mamlakatimiz soliq siyosatini olib borishda o'ta ehtiyotkorlikni talab etadi. Bunday sharoitda barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni moliyaviy faoliyatini yaxshilash va mahsulot sifatini oshirish maqsadida soliq yukini ishlab chiqaruvchilardan iste'molchilarga o'tkazilib, bevosita soliqqa tortish hajmi pasayib bormoqda. Har qanday soliq tizimining ajralmas, qolaversa eng murakkab jihatlarini namoyon etuvchi holat bu soliq yuki hisoblanadi. Soliq turlari bo'yicha soliq yukini doimo o'rganish muhim ahamiyat kasb etadiki, buning sabablari quyidagilardadir:

- soliq yukini tahsil etish va uni to'g'ri aniqlash soliqqa tortishning adolatlilik tamoyilini yuzaga chiqishini ta'minlaydi;

- soliq yuki bu soliq to'lovchilarning soliqlarga bo'lgan munosabatlarini aniqlashga imkon yaratadi;

- soliq yukini tahlil etish iqtisodiyot tarmoqlaridagi o'zaro mutanosiblik holatini o'rnatishga yo'nalish beradi;

- soliq yukini davlatning iqtisodiy (soliq) siyosatining samarasini aniqlovchi omil bo'lishi bilan birga uni to'g'ri belgilab borish davlatning iqtisodiyotga oqilona ta'sir etishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ushbulardan ko'rinadiki, bilvosita soliqlar bo'yicha soliq yukini tadqiq etish va uning holatiga to'g'ri baho berish bilvosita soliqlarning amal qilish mexanizmini to'laqonliroq yoritishga imkon beradi. Shundan kelib chiqib biz

bilvosita soliqlarga tegishli soliq yuki jarayonini tahlil etishni maqsadga muvofiq deb hisobladik.

Soliq yuki va uni aniqlash muammosi o'tgan asrning yigirmanchi yillarida ichki va tashqi jihatlarini nuqtai nazaridan o'rganilgan bo'lib, tashqi alomatlariga ko'ra soliq yuki soliqqa tortish ob'ektini to'liq qamrab olgan holda bu holatning turli davlatlardagi xususiyatlari taqqosiy o'rganishga asoslangan edi. Ichki soliq yukini aniqlash tamoyilida esa soliq tushumlarining turli xil sotsial guruhlar o'rtasida taqsimlanish muammosiga urg'u berilgan. Agar, tarixiylik nuqtai nazaridan qaralganda soliq yukini aniqlash masalasi soliqqa tortish nazariyasida XVIII asrda ilmiy qarashlar ob'ektida o'rin olgan bo'lib, moliyaviy fanlar sohasida bilimlarning boyib borilishi soliq yukining tashqi jihatlarini tadqiq etish imkonini berdi.¹

Soliq yuki muammosida ilmiy tadqiqotlarga tortilishidan to hozirgi kunga qadar bosh masala sifatida milliy daromad va davlat byudjeti o'rtasida muayyan optimal me'yorni o'rnatish bosh masala sifatida o'rin olib kelmoqda. Ammo, soliq yuki iqtisodiy tizimning turlicha shakllariga asoslangan davlatlarda umumiy ko'rinishga ega bo'lishi bilan bir qatorda hatto bitta milliy xo'jalik doirasida hamda iqtisodiy hududlar bo'yicha o'ziga xos xususiyatda namoyon bo'ladi. Hatto, mulkchilik shakllari va tarmoqlar bo'yicha ham o'zaro farqli jihatlariga ega bo'ladi.

Davlat xazinasini va milliy daromad yoki yalpi milliy mahsulot o'rtasidagi nisbatning oqilona variantda o'rnatilishi bir tomondan davlat xarajatlari miqdoriga bog'liq bo'lsa, boshqa tomondan jamiyatda yaratilgan milliy daromad (mahsulot)ni taqsimlash mexanizmiga, qolaversa tashqi omillar va shu kabilarga bog'liq bo'ladi.

Soliq yuki muammosi hal etish bu iqtisodiyotning barcha sohalarida o'z mujassamini topishi bilan bir qatorda iqtisodiy proportsiyalar ta'minlashga o'z ijobiy ta'sirini o'tkazishi mumkin. Biroq, soliqqa tortish nazariyasida soliq yuki muammosiga turlicha yondashuvlar mavjud. Ayrim iqtisodchilar soliq yuki sifatida byudjetning milliy daromadga nisbatini kelib chiqib baholash lozimligini uqtirsa²,

¹ Пушкарева В.М. История финансовой мысли и политики налогов: учебное пособие. – М.: 1996. 183 стр.

² Гок. К. Государственного хозяйства. Налоги долги, Киев, 1865, С. 29.

XX asrning yigirmanchi yillarida iqtisodchi olim K.Shmelev Soliq yukini baholashda uning ikki elementi: Soliqqa tortish tushumlari; soliq tushumlarining xalq xo'jaligiga bosimi (ta'siri) yoki xususiy og'irlik darajasini hisobga olishni taklif etadi¹. Bu davrlarda soliq yuki bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlarda bosh muammo sifatida soliq tushumlarining alohida olingan xususiy xo'jaliklarga va butun xalq xo'jaligiga bosimning ta'sirini o'rganish masalasi bo'ldi. Shundan kelib chiqib soliq yukining turlicha sohalaridagi xususiyatlarini tadqiq etish keyingi ilmiy ishlarning diqqat markaziga aylana bordi.


Respublikamizda keyingi yillarda soliq yuki muammosiga respublikamiz iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida ham o'rin oldi. Xususan, i.f.d M. Almardanov soliq yukining tadbirkorlik faoliyatiga ta'sirini tadqiq etib, keyingi yillarda soliq yukini aniqlashda qo'llanilayotgan uslubiyotning bir qator kamchiliklarini ko'rsatib bergan holda soliq yukini hisoblashda absolyut va nisbiy soliq yukini farqlashni taklif etadi. M.Almardanovning fikricha, Bilvosita soliqlar korxonalar soliq yukini kuchaytiradi, bu soliqlar o'zgacha o'tkaziladigan bo'lishiga haramasdan, ishlab chiqiriladigan mahsulotning oxirgi iste'molchilari – ularning real to'lovchilaridir... korxona qo'shilgan qiymat solig'ining «kirish»dagi summasi qoplanadi. Natijada qo'shilgan qiymatga hisoblangan QQS summasi korxonalar tomonidan byudjetga to'lanadi va u korxona soliq yukini hisoblashda e'tiborga olinishi, soliq to'lovlari tarkibiga kiritilishi lozim. Prof. T.Malikov soliq yukiga quyidagicha ta'rif beradi. «Soliq og'irligi (yuki, «zulmi») – davlat va jamiyat hayotida soliqlarning rolini xarakterlab (ko'rsatib) beradigan umumlashgan ko'rsatkich. Ishlab chiqarishning umumiy hajmi va daromadlarida soliq ajratmalarining salmog'ini (hissasini) ko'rsatuvchi bozor iqtisodiyotining amalga oshirilayotgan modelidan kelib chiqadigan o'lcham. Soliq yig'implarining jami milliy mahsulotga nisbati bilan aniqlanadi»² O'z navbatida prof. Q.Yahyoev soliq yuki deganda «To'lovchining hamma soliqlar va yig'implar yig'indisidan byudjetga

¹ Пушкарева В.М. История финансовой мысли и потока налогов: учебное пособие, - М.: 1996 с.185

² Маликов Т.С. Соликлар ва соликка тортишнинг долзарб масалалари. Монография, академия нашриёти. Т.: 2002й.-164 б.

to'lashidir. Soliq og'irligi foydaga yoki jami daromadga nisbatan olinadi»¹ deb hisoblaydi.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda xulosa qiladigan bo'lsak, soliq yuki bu soliq to'lovchilar iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish natijasida yaratilgan yoki topilgan qiymatning qancha qismi majburiy to'lovlar sifatida byudjetga va boshqa fondlarga yo'naltirilganligini ifodalaydi. Soliq yuki odatda jamiyat (milliy iqtisodiyot), sohalar, tarmoqlar, alohida olingan korxona hamda individlar doirasida mavjud bo'ladi va ularning har biri bo'yicha soliq yukini tahlil etish birmuncha farqlanadi. Soliq yukini tavsiflovchi ko'rsatkichlardan biri yalpi ichki mahsulotning byudjetga yo'naltirilgan qismidir. Shunga muvofiq milliy iqtisod doirasida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar zimmasidagi soliq yukini byudjetning maqsadsiz va maqsadli fondlari (mulk qo'mitasining maxsus hisobvarag'idagi so'mmasini chegirgan holda) yig'indisini yalpi ichki (milliy) mahsulot miqdoriga nisbati va foizdagi ifodasi sifatida baholash mumkin.



4-rasm. YaIMga nisbatan soliq yukining o'zgarish dinamikasi.¹

¹ Яхёев Қ.А. Солиққа тортиш назарини ва амалиёти. Т.: Ўқитувчи, 2003 йил 19 – бет.

Yuqoridagi ma'lumotlardan xulosa qilish mumkinki, soliq to'lovchilar zimmasidagi soliq yuki islohotlarning dastlabki yillarida bir muncha yuqori bo'lgan bo'lsa, keyingi yillarda ayniqsa iqtisodiy o'sishga erishilgan yillardan boshlab kamayib borish tendentsiyasiga ega bo'lib bormoqda. Agar, jami soliq yuki 2005 yilda 22,6% foiz atrofida bo'lgan bo'lsa, 2010 yilda esa uning darajasi 21,9% atrofida bo'ldi, 2012 yilda esa 21.6 % ni tashkil etgan.

2013 yilda esa soliq yukining umumiy darajasi yana 0,3 punktga kamaytirish, ya'ni 21,3%gacha tushirish chora-tadbirlari ko'rilmogda. Biroq, ushbu ko'rsatkichni dunyoning rivojlangan va boshqa bir qator davlatlardagi holatga e'tibor beradigan bo'lsak, Respublikamizda olib borilayotgan soliq siyosati juda mu'tadil holatdaligini anglash qiyin emas.

8-jadval.

Dunyoning ayrim davlatlarida soliq yukining o'rtacha darajasi, foizda²

Davla va uyushmatlarlar nomi	Soliq yukining o'rtacha darajasi, foizda	O'zbekistondagi soliq yukining boshqa davlatlardagi holat bilan qiyosiy darajasi
AQSH AQSh	32,3	1,5 marta past
Evropa ittifoqi davlatlari	42,6	2,0 marta past
Lotin Amerikasi davlatlari	47,2	2,2 marta past
IHRTga a'zo davlatlar	35,9	1,7 marta past
Janubiy Osiyo davlatlari	40,2	1,9 marta past
Sharqiy Osiyo davlatlari	34,5	1,6 marta past
Markaziy Osiyo davlatlari	40,5	1,9 marta past
Rossiya Federatsiyasi	34,1	1,6 marta past
MDHga a'zo davlatlar	25,2	1,2 marta past
Dunyo davlatlari bo'yicha o'rtacha	44,7	2,1 marta past
O'zbekiston	21,6	x

¹ www.mf.uz. O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi ma'lumotlari.

² Manba: www.worldtax.org, www.worldwide-tax.com, www.taxworld.org internet saytlari ma'lumotlari.

Jadvaldan ko'rinadiki, Respublikamizda soliq yuki dunyo bo'yicha hamda Evropa ittifoqi davlatlari, Lotin Amerikasi davlatlaridagi o'rtacha darajadan 2,1 marta past ko'rsatkichga ega. Shuningdek, MDHga a'zo davlatlardagi o'rtacha soliq yukining ham nisbatan pastligiga Respublikamizdagi soliq yuki darajasi katta ta'sirga ega. Chunki, Rossiyada bu ko'rsatkich 34,1%ni, Belorussiyada 27,6%ni, Ukrainada 25,3%ni tashkil etadi¹.

Ma'lumki, soliqlarni bir-biriga yuklash soliq tizimidagi eng murakkab va og'ir masalalaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon nazariy jihatdan muhim masala bo'lib, u amaliyotda unchalik o'z ahamiyatini ko'rsata olmasligi mumkin. Mamlakatda iqtisodiy o'sish uzluksiz va yuqori bo'lsa soliq tushumlarida to'g'ri soliqlarning ulushi yuqori bo'lishi, aksincha holatda esa soliqlar jamida bilvosita soliqlarning hissasi yuqori bo'lishligi iqtisodiy qonuniyatdir. Islohotlarning dastlabki yillarida bilvosita soliqlarning yalpi ichki mahsulot va jami byudjet daromadlaridagi hissasi (soliq yuki)ning yuqori bo'ldi va tabiiy jarayon sifatida baholanish zarur. Sababi, bu yillar davrida mamlakat iqtisodiyotida monopolistik korxonalarning mavqeining yuqoriligi, ularning mahsulotining bozorlarda tez realizatsiya etilishi, mahsulot (xizmat, ish)larning narxlarining sun'iy oshirilishiga olib kelindi, buning oqibatida esa bilvosita soliqlarning ob'ektining o'z-o'zidan kengayishi ta'minlandi, bundan tashhari bu yillar davrida bilvosita soliqlar soliq yukining yuqori bo'lishida miqdoriy omil-soliq to'lovchilar soning ta'siri katta bo'ldi. Chunki, tahlil etilayotgan yillar davomida iqtisodiy sub'ektlarning tarkibiy o'zgarishi amalga oshirilganligi, mulkchilikning yangi shakllari va unga muvofiq yangi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning vujudga kelishi, ilgari monopol ahamiyatga ega bo'lgan korxonalarning xususiylashtirilishi, bo'linishi, ular tarkibida yangidan-yangi sub'ektlarning paydo bo'lishligi oqibatida bilvosita soliqlarning to'lovchilari jadal sur'atda o'sishi va soliq tushumlarining oshishiga olib keldi. Bundan tashhari islohotlarning dastlabki yillarida inflyatsiya darajasining yuqoriligi ham bilvosita soliqlar yukining yuqori bo'lishining iqtisodiy omili bo'lib xizmat qildi.

¹ Manba: www.worldtax.org.

Bilvosita soliqlarning asosiy ikki xususiyati mavjud bo'lib, ularning biri bilvosita soliqlarning huquqiy to'lovchilari pirovard iste'molchilaridir. Bilvosita soliqlarning yana bir xususiyati ularning iste'molni cheklash vazifasini bajarishligi, mahsulot bahosiga qo'shimcha ustama sifatida tovarning bahosini oshishiga olib kelinishidir. Bundan ko'rinadiki, bilvosita soliqlarning soliq yuki iste'molchilar zimmasiga tushadi. Bilvosita soliqlar baho tarkibiga kirib, mahsulot (xizmat, ish)lar bahosini oshirish orqali iste'molni biroz bo'lsada cheklaydi, ya'ni boshqacha so'z bilan aytganda iste'molga teskari mutanosiblikda ta'sir etadi. Bilvosita soliqlarning haqiqiy to'lovchilari iste'molchilar bo'lishidan qat'iy nazar soliq to'lovchilar moliyaviy – xo'jalik faoliyatiga ta'sirini o'tkazadi. Chunki, korxona mahsuloti (xizmat, ish)ning ulgurji bahosi (tannarxi) o'z ichiga korxona olishi kutilayotgan me'yoriy foyda va bilvosita soliqlar ustamasidan iborat bo'ladi. Agar, korxona mahsuloti narxi oshsa, u holda bu mahsulotlarga bo'lgan talab kamayishi, ya'ni iste'molchilarning ularni sotib olishga ehtiyoji kamayadi, pirovardida esa korxona mahsuloti realizatsiyasi kamayadi yoki to'xtab qolishi oqibatida foyda olinmasligi mumkin. Bu jarayon esa bilvosita soliqlar ob'ektining haddan oshishi to'g'ri soliqlar ob'ektini kamayishiga yoki vujudga kelmasligiga olib kelinishini, ham bilvosita soliqlar, ham bevosita soliqlar soliq yuki mutanosib kamayishini ta'minlaydi.

Bilvosita soliqlarning soliq yuki nafaqat byudjet daromadlariga shuningdek, korxonalar moliya-xo'jalik faoliyatiga ta'sir etib, ularning boshqasoliqlar bo'yicha majburiyatlarini bajarish holatiga jiddiy ta'sir etishi mumkin, bundan tashhari mahsulot(xizmat, ish)larning tannarxini oshirishi yoki kamaytirishi hisobiga bozordagi talab va taklif darajasiga, iste'molning turiga, o'rinbosar tovarlarning naflilikni qondirish darajasiga hamda aholining pul daromadlarining xarid qobiliyatiga kuchli ta'sir etish xususiyatiga ega bo'lib, uni (soliq yukini) baholashda yoki unga oid soliq siyosatini yuritishda ana shu ta'sirchanlik xususiyatini hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Agar, narxlar barqarorlashgan sharoitda soliq yukini barqaror ushlash aholini real daromadlariga salbiy ta'sir etmaydi. Bundan ko'rinadiki, bilvosita soliqlar bo'yicha soliq yuki nafaqat

iqtisodiy oqibatga shu jumladan sotsial oqibatlarni ham keltirib chiqarish xususiyatiga egadir. Ya'ni, bilvosita soliqlar soliq yukining haddan ziyod oshirilishi korxonalar qo'lidan aylanma mablag'larning kamayishiga, ishlab chiqarish ko'lamining pasayishiga oqibatda esa ishsizlar sonining oshishiga olib kelishi mumkin, bundan tashhari yuqorida ta'kidlaganimizdek, soliq yukining oshishi aholining real pul daromadlarining kamayishi orqali aholining turmush darajasini yomonlashuviga ta'sir etadi. Keyingi yillarda bilvosita soliqlar soliq yukining aholiga salbiy ta'sirini kamaytirishga qaratilgan soliq siyosati yuritilayotganligini guvoi bo'lishimiz mumkin.

Soliq yukining dinamik holatiga ta'sir etuvchi omillar bilvosita soliqlar turlari bo'yicha ham o'zaro farqlanish xususiyatiga egadir. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq yuki o'zgarishda narxlarning o'zgarishi omili salmoqli o'rinni egallasada aktsiz solig'i bo'yicha soliq yuki darajasiga soliq stavkasi foizining ortishi narxlar o'zgarishi hamda aktsiz solig'iga tortiladigan tovarlar ro'yhatining (soliq ob'ektlarining) kamayishi kabi omillar ta'sir etganligini ko'rishimiz mumkin. Boshqa bilvosita soliqlar bojxona boji, transport vositalari uchun iste'mol etilgan benzin, dizel yoqilg'i va gaz uchun jismoniy darajasiga esa soliq stavkalarining oshishi omili katta ta'sir kuchiga ega bo'lmoqda.

Bitiruv malakaviy ishimizning ushbu bobi doirasida amalga oshirgan tahlillarga asoslanib quyidagi xulosalarni chiqarishga muvaffaq bo'ldik:

Bozor munosabatlariga o'tishning dastlabki bosqichlarida davlat tomonidan iqtisodiyotni tartiblashda soliqlar vositasining o'rnining oshishiga ob'ektiv zarurat tug'ildi. Bunda asosan yuqori stavkali bilvosita soliqlardan kengroq foydalanildi va o'tish davrining dastlabki vaqtlarida monopol ahamiyatdagi ishlab chiqaruvchilarning bozordagi munosabatlari birmuncha tartiblanishga erishildi.

Albatta, bu davrdagi yuqori soliqqa tortish tendentsiyasiga amal qilinishi bizning fikrimizcha, to'g'ri qo'llanilgan soliq siyosati bo'lib, u quyidagi sabablarga ega edi:

Birinchidan, yuqori soliqqa tortish siyosati orqali byudjetga ko'proq pul tushumlarini jalb etishga erishildi;

Ikkinchidan, esa bozorda mahsulotga sun'iy talabning mavjudligidan foydalangan korxonalarning o'z mahsulotlari tannarxini uning to'liq tannarxidan bir necha marta ortiq miqdorda o'rnatgan holda sotishi hisobiga iqtisodiyotda tabiiy inflyatsiya jarayonini sun'iy oshirilishi iqtisodiyotga salbiy ta'sir etdi;

Uchinchidan, ayrim turdagi mahsulotlar bo'yicha aktsiz solig'i stavkalarining birmuncha yuqori belgilanish hisobiga mahsulotlarning chetga tashib ketilishi oldi olindi. Bizning fikrimizcha, iqtisodiyotni soliqar vositasida tartiblashda bilvosita soliqlar quyidagi afzalliklarga va mexanizmga ega:

Bilvosita soliqar orqali xo'jalik yurituvchi sub'ektlardan ko'proq soliq undirish imkoniyatining mavjudligi moliyaviy resurslar boshhariladi. Yuqori daromad olayotgan yoki bozorda muayyan darajada mavqega ega bo'lgan soliq to'lovchilarning moliyaviy resursining bir qismi markazlashgan pul fondiga olinadi va u jamiyat uchun muhim bo'lgan ishlab chiqaruvchilarga o'tkazilib, iqtisodiyot sub'ektlarining amal qilish holati va ularning tarkibi tartibga solish imkoniyati tuqiladi.

Bilvosita soliqlar orqali davlat iqtisodiyotga makro va mikro darajada aralashish imkoniyatiga ega bo'ladi. Makrodarajada tartiblashda asosan aktsiz solig'i va bojxona boji muhim rol o'ynaydi. Aktsiz solig'i va bojxona boji orqali davlat birinchidan, iste'mol tarkibiga ta'sir etadi, ikkinchidan kapital oqimining yo'nalishiga ta'sir etish imkoniyatiga ega bo'ladi, uchinchidan, milliy iqtisodiyotda faoliyat ko'rsatuvchi ichki tovar ishlab chiqaruvchilarni chetdan mahsulotlarning konterventsiyasi(suqilib kirish)dan asraydi, ega o'rinbosar tovarlar nazarda tutilmo?da.

Bilvosita soliqlar orqali milliy bozorda ortiqchalik darajasida bo'lgan tovarlarni ishlab chiqaruvchilarni direktiv ko'rsatmalar bilan emas, balki iqtisodiy ta'sir (majbur) etish orqali kapitalni bu sohadan boshqa sohaga o'tkazishni hamda yangidan ish boshlayotgan tadbirkorlik sub'ektlarini bu turdagi faoliyat bilan emas jamiyat uchun muhimroq va bozor uchun kamyob bo'lgan mahsulot ishlab chiqarishni yohud faoliyat bilan shug'ullanishga yo'nalish beriladi, pirovardida davlat tomonidan kapitalning o'imini muvofiqlashtirish va tartibga solish siyosati

amalda realizatsiya etilishi oqibatida iqtisodiyotga ijobiy ta'sir etish imkoniyati tuqiladi.

Davlatning iqtisodiy sohadagi muhim yo'nalishlaridan biri bu milliy bozorni himoyalash (proteksion) siyosati bo'lib, uni amalda ta'minlashning ma'muriy, psixologik hamda iqtisodiy usullardan keng foydalaniladiki, bunda bilvosita soliqlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Bilvosita soliqlar shuningdek, daromadlarni muvofiqlashtirish vazifasini ham bajaradi. Bilvosita soliqlar orqali aholining boy qatlami qo'lidagi pul mablag'larini markazlashgan pul fondlariga jalb etish orqali birinchidan, iqtisodiyotda pul mablag'larining harakati boshharilishiga ijobiy ta'sir etilsa, ikkinchidan byudjetning daromadlar qismini ko'paytirish imkoniyati tuqiladi. Bilvosita soliqlarning bu xususiyati asosan aktsiz solig'i orqali namoyon bo'ladi.

Bilvosita soliqlar bo'yicha soliq yukiga soliq stavkalari, berilayotgan imtiyozlar, soliq to'lovchilar soni ta'sir etadi. Bilvosita soliq bo'yicha soliq yukining pasayishi iqtisodiy taraqqiyotning rivojlanishi, inflyatsiyaning kamayganligini ifodalasa, soliq yukining oshishi esa soliq siyosatida korxonalar soliq yukining ma'lum qismini iste'molchilar zimmasiga yuklashga haratilgan soliq siyosati olib borilayotganligini xarakterlaydi.

III-Bob. Bilvosita soliqlarni hisoblash mexanizmini takomillashtirish

3.1. Bilvosita soliqlarni hisoblash mexanizmini takomillashtirish yo'llari.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qator farmon va qarorlari qabul qilindiki, ular iqtisodiyotni erkinlashtirish, soliq qonunchiligi va yuridik shaxslar to'laydigan bilvosita soliqlarni hisoblash mexanizmi, byudjetga to'lash tartibini takomillashtirishga haratildi. Bugungi kunda yuridik shaxslardan undiriluvchi bilvosita soliqlarni yuridik shaxslarning moliyaviy xo'jalik faoliyatiga ta'sir etish mexanizmini takomillashtirish va soliq yukini optimalashtirish nazariy va amaliy jihatlarini o'rganish davlatimiz hukumati tomonidan olib borilayotgan iqtisodiy siyosatining dolzarb masalalaridan biridir.

Shu munosabatda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Oliy Majlis palatalarining qo'shma yiqilishida belgilab bergan ustuvorliklarga muvofiq, Respublikamiz hukumati 2005 yilda Soliq Kodeksi loyihasini ustida ishlashni boshladi. Ushbu hujjat 2008 yilning 1 yanvaridan kuchga kirdi. Yangi tahrirdagi Soliq Kodeksi avvalgi kodeksni sifat jihatidan takomillashtirish va kengaytirish, shuningdek soliq solish masalalarini tartibga soluvchi barcha amaldagi me'yorlar va nizomlarni takomillashtirish va tizimlashtirish yo'li bilan ishlab chiqildi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi to'g'ri ta'sir qiluvchi qonun hujjati bo'lib, eski tahrirdagi oldingi Soliq Kodeksidan sezilarli farq qiladi. Bu shuni anglatadiki, aynan shu Soliq Kodeksi oldin amaldagi ko'p sonli yo'riqnomalar, tartiblar va nizomlar o'rniga soliq solish tizimini me'yoriy boshharish vazifasini bajaradi. Yangi Soliq Kodeksining bevosita ta'sir ko'rsatuvchi hujjat sifatida joriy etilishi soliq qonunchiligining barqarorligini va aniqligini ta'minlash orqali iqtisodiyotni yanada rivojlantirishga ko'maklashadi.

Bozor iqtisodiyoti davrida soliq tizimi orqali boshharishning ahamiyati ortib borayotgan bo'lib, soliq tizimini takomillashtirishda rivojlangan davlatlarni soliqlarni adresli bo'lishini ta'minlash va rag'batlantiruvchi jihatlarini

kuchaytirishga haratilgan ilg'or tajribasidan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Yuridik shaxslar to'laydigan bilvosita soliqlardan qo'shilgan qiymat solig'i sotish bahosining bir elementi sifatida ishtirok etib, ushbu mahsulotlarga talabni kamaytiradi boshqa bilvosita soliqlar kabi qo'shilgan qiymat solig'i iste'molchilar real daromadlarini pasaytiradi va ishlab chiqaruvchilarning sotish hajmlarini qishartiradi. O'zbekiston soliq qonunchiligi bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i bazasiga unga aloqasi bo'lmagan tannarx tarkibiga kiritiladigan soliqlar va to'lovlar hamda tovarlar bahosiga qo'shiladigan aktsiz solig'i, import uchun bojxona bojlari ham kiritiladi. O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, tovarlarning narxi darajasi ishlab chiqarish va sotish xarajatlariga kiritilgan soliqlar va tovar bahosiga ustama shaklida kiritiladigan bilvosita soliqlarning o'zi yana qo'shilgan qiymat solig'i bazasini kengaytirmoqda. Shu sababli qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash va to'lash chog'ida qo'shilgan qiymat solig'i bazasini kengaytiruvchi soliqlar va majburiy ajratmalar qo'shilgan qiymat solig'i bazasidan chiqarilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Qo'shilgan qiymat solig'i to'lash muddatlari qo'shilgan qiymat solig'i summasini xaridorlardan haqiqatda kelib tushish muddatlaridan ilgarilab ketadi. Hisoblash usulida tovar realizatsiya qilingan deb uning puli haqiqatda kelib tushgan emas, balki yuklab jo'natilgan kun bo'lib hisoblanadi. Korxona mahsulot bo'yicha tushumning kelib tushish tushmasligidan qat'iy nazar soliqni to'lashi shart. Bu hol ko'pchilik paytda boqimandalar muammosinni keltirib chiqaradi, shu sababli tovarni sotilgan kuni deb korxona bank hisob varag'iga yoki kassaga pul kelib tushgan sanani olish lozim.

Korxona qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etilgan bo'lsa ozod qilingan mahsulotlar ishlab chiqarsa xom ashyo va resurslar uchun to'langan qo'shilgan qiymat solig'i summasini tannarx xarajatlariga olib boradi. Shundan so'ng u shu resurslardan ishlab chiqargan tovarni sotsa hisob fakturaga qo'shilgan qiymat solig'isiz deb belgi qo'yadi. Bu tovarni sotib olgan korxona qo'shilgan qiymat solig'ini butun aylanmadan to'lashga majbur bo'ladi. Bunda davlat qo'shilgan

qiymat solig'idan hech qanday imtiyoz bermayapti, ammo soliq bazasini kengaytirib ikkinchi to'lovchidan ikki barobar qilib undirib olmoqda. Qo'shilgan qiymat solig'idan imtiyoz berish yoki ozod etiladigan tovar ish, xizmatlar faqatgina oxirgi iste'molchi bilan muomilada bo'luvchi korxonalarga berilishi kerak. Bu kabi korxonalarga imtiyoz berish soliq qonunchiligida chigalliklar kelib chiqishiga zamin yaratmaydi. Boshqahar qanday holatda oraliq iste'molchilarga qo'shilgan qiymat solig'idan imtiyoz berish korxonalarning iqtisodiy nochorlanishiga olib kelishi mumkin.

Aktsiz solig'i jahon amaliyotida ikki turdagi tovarlarga solinadi: inson hayoti uchun zararli tovarlar va zebu ziynat buyumlari. Bizning Respublikamizda esa ularni quyidagi guruhlariga bo'lingan ijtimoiy zararli tovarlar, zebu ziynat buyumlari, tabiiy resurslar va birinchi darajali iste'mol tovarlari. Soliqlarning asosiy belgilaridan biri soliqlarning faqatgina davlat byudjetiga tushushidir. Bu korxonalarga imtiyoz berishdan ko'ra shu tovarlar uchun aktsiz solig'ini bekor qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning hisobidan tovarlar narxi pasayib iste'mol ko'payadi va tovarlar sotilishi ko'payishi natijasida korxonalarning foydasi ortadi. Aktsiz solig'ini bekor qilish bo'yicha undirilmagan summa foydani soliqqa tortish bilan amalga oshiriladi.

XX asrning ikkinchi yarmida rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ko'pchiligida ham soliq islohatlari o'tkazilgan. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda o'tkazilgan soliq islohatlari fiskal islohat nuqtai nazaridan ikki guruhga bo'linadi:

Birinchi guruh davlatlar AQSh, Angliya, Yaponiya to'g'ri soliqqa tortish tizimini rivojlantirishni tanladilar.

Ikkinchi guruh davlatlari bu Evropa Iqtisodiy Ittifoq davlatlari bo'ldi. Ular o'z asosiy imkoniyatlarini bilvosita soliqqa tortish tizimini rivojlantirishga yo'naltirdilar.

Soliqqa tortishni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlaridan yuridik shaxslardan olinadigan foydasidan olinadigan umumiy soliq miqdorini kamaytirish, korporatsiyalar foydasiga soliq stavkasini pasaytirishga shu bilan bir qatorda investorlarga berilgan soliq imtiyozlari tizimini isloh qila boshladilar.

Bunday holatda byudjet yo'qotishlarini qoplash zarurati kelib chiqdi va asta sekinlik bilan bilvosita soliqlar stavkasini oshirish va ularni soliqqa tortish bazasini kengaytirish bilan bir qatorda milliy kapitalni investitsiyalashni va xususiy tadbirkorlikni rag'batlantirishni o'sishi uchun kuchli mexanizm yaratdilar.

Rivojlangan davlatlar soliq tizimidagi islohatlardagi ilg'or tajribalarini O'zbekiston Respublikasida qo'llashda davlatimizning iqtisodiy va soliq siyosatining o'ziga xos xususiyatlari va tamoyillari nuqtai nazaridan ko'rib chiqilishi lozim. Bu albatta o'tkazilayotgan soliq siyosati islohatlarining ijobiy istiqbolini ta'minlaydi.

Mamlakatimizda bozor iqtisodiyoti davrida amalga oshirilayotgan islohatlar bilan bir qatorda yuridik shaxslar to'laydigan bilvosita soliqlarni hisoblash mexanizmi ham takomillashib bormoqda. Mazkur yuridik shaxslar to'laydigan bilvosita soliqlarni iqtisodiyot rivojini ta'minlashda xo'jalik sub'ektlari uchun rag'batlantiruvchi jihatlardan yanada samarali foydalanishda etakchi davlatlarning ilg'or tajribasini o'rganish maqsadga muvofiqdir.

3.2. Yuridik shaxslar to'laydigan bilvosita soliqlarni hisoblashda mavjud muammolar va ularning echimlari.

Bilvosita soliqlarning soliq tizimidagi ahamiyatini oshirishda shuni alohida qayd etish lozimki, bu jarayonda mamlakat soliq tizimida bevosita va bilvosita soliqlar nisbatini ta'minlash nuqatai-nazaridan yondashish maqsadga muvofiq. Bunda albatta bevosita va bilvosita soliqlarning ijobiy va salbiy jihatlari e'tiborga olinishi lozim. Bevosita va bilvosita soliqlar nisbatini optimal darajasini tanlashda ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar manfaatlari o'rtasida muvofiqlikka erishish, shu bilan birga davlat byudjeti daromadlarini kamaymasligini ta'minlash lozim. Bu muammoni echishda xorijiy davlatlar tajribasidan foydalanish albatta o'rinli, lekin avvalambor, hozirgi bosqichda respublikamizdagi soliqlar borasidagi vaziyatni tahlil qilib chiqish kerak bo'ladi.

Soliqqa tortish tizimining naqadar to'g'ri va adolatli tashkil kilinganligini soliq aniqlab beradi. Soliq yukining darajasini kuyidagi omillar belgilab beradi:

- soliq va turli majburiy tulovlar soni;
- ularning stavkalari darajasi;
- soliq bazasining keng yoki torligi.

Ushbu omillardan birining kamayishi(usishi) boshqa omillar uzgarmagandagina soliq yukini kamayishi(usishiga) ta'sir etishi mumkin. Aytaylik, soliq stavkalari kamaytirilsa-yu, soliqlar soni ko'paysa yoki soliq ob'ekti elementlari kengaytirilsa soliq stavkasining pasaytirilishi xech kanday natija bermaydi va soliq yuki uzgarmaydi. Masalan, 1995 yilda daromad(foйда) soliqi bazasidan ish haklari chiqarildi, ammo soliq stavkasi 18% dan 38% ga kutarildi. Natijada soliq yuki ortdi. 1998 yilda foyda soliqi stavkasi 35% ga tushirildi, ammo korxona ixtiyorida koladigan foydadan tulanadigan yangi soliq-ijtimoiy infratuzilma soliqi kiritildi, QQS, mol-mulk, er soliqlari stavkalari oshdi va baza kengaytirildi. Natijada soliq yuki yanada oshdi. 1999 yilda foyda soliqi 33% ga tushirildi. Ammo ishlab chikarish zahiralariga soliq joriy etildi, 2000 yildan yuridik shaxslar daromad(foйда) soliqi stavkasi 26% ga tushirildi, ammo mol-mulk soliqi stavkasi oshirildi, 2003 yilda foyda soliqi stavkasi 20% qilib belgilandi, mol-mulk soliqi esa 2% dan 3%ga ko'tarildi. 2005 yilda foyda soliqi stavkasi 15% bo'lgan bo'lsada, aktsiz solig'ini stavkasi ayrim tovar turlari bo'yicha oshdi. Soliq yukini ishlab chiqarish va iste'molchi o'rtasida taqsimlanishi deyilganda, alohida olingan mahsulotning (ish, xizmat) oxirgi iste'mol qiymatiga kiritilgan barcha soliqlar va yig'implarning qancha qismi iste'molchi zimmasiga (bilvosita soliq sifatida) va qanchasi ishlab chiqaruvchi (sotuvchi) foydasi hisobidan to'lanayotganligini nazarda tutiladi.

G'arb iqtisodchilari Kempbell R. Makonell va Stenli L. Bryu «Ekonomiks» da soliq yukining ishlab chiqaruvchi va iste'molchi o'rtasida taqsimlanishi talab va taklifning elastik yoki noelastik ekanligiga bog'liqligini taxlil etgan. Ular fikricha, talab va taklif teng bo'lgan sharoitda yangi o'rnatilgan bilvosita soliq yoki uning oshirilgan stavkasi ishlab chiqaruvchi va iste'molchi o'rtasida teng taqsimlanadi.

Buning sababi shundaki, agar yangi o'rnatilgan soliq to'liq haridor zimmasiga yuklansa, mahsulot realizatsiyasining keskin kamayishiga, binobarin ishlab chiqaruvchi daromadining pasayishiga olib keladi. Shu tufayli mahsulotni sotuvchilari bilvosita soliqlarning bir qismini o'z zimmasiga olish evaziga realizatsiyani bir maromda saqlashga va shu orqali daromadlarni keskin kamayishidan saqlanishga harakat qiladilar. Soliq yukining bunday taqsimlanishiga:

- 1) Mahsulot turining birinchi zarurat ekanligi yoki emasligi;
- 2) Ma'lum bir davrda ayni bir mahsulotning rasm bo'lganligi tufayli talabning oshishi;
- 3) Mazkur tovarning o'rnini bosuvchi boshqatovarlarning mavjudligi;
- 4) Ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi ra'obat ham ta'sir etadi.

Bilvosita soliqlar, asosan QQS va aktsizlar to'laligicha iste'molchi zimmasiga to'g'ri keladi. Lekin ular ishlab chiqaruvchi faoliyatiga ikki jihatdan ta'sir etadi:

Soliq summalari korxona hisob rahamiga pul hali kelib tushmasidan to'lanadi;

Bilvosita soliqlar narxlarni maksimal darajaga etkazib, sotish hajmini kamaytiradi.

Ko'pchilik xorijiy davlatlarda soliq yukining narxlarga va iste'molga ta'sirini kamaytirish maqsadida QQSning tabaqalashgan stavkalari qo'llaniladi. Bunda birinchi iste'mol tovarlari uchun imtiyozli yoki nollik stavka qo'llaniladi. Soliq yukini muqobillashtirishning yana bir yo'li - bu korxonalar narxlarni nisbatan pasaytirib, bilvosita soliqlarning bir qismini o'z zimmalariga oladilar va bu orqali sotish hajmini oshirishlari mumkin.

Bilvosita soliqlarning yuridik jihatdan to'lovchilari mahsulot (ish, xizmat)ni ortgan bajargan korxonalar hisoblanadi. Lekin umumiy hoida bo'yicha ular soliqning biror so'mini ham o'z daromadlaridan to'lamaydilar. Soliq, summasini sotilgan (ortilgan) mahsulot (ish, xizmat) qiymati ustiga qo'yib uni iste'mol

qiluvchidan undirib oladi va o'zi sotib olgan mahsulotga tegishli soliq summasini chegirib tashlab farqini byudjetga o'tkazadi.

Demak, bilvosita soliqlar kelib chiqishi mohiyatiga ko'ra soliqning yuridik to'lovchisiga nisbatan betarafdir binobarin uning faoliyati moliyaviy natijasiga ta'sir etmasligi kerak. Biroq qisman bo'lsada, korxonalarning moliyaviy imkoniyatiga ta'sir etadi. Ammo soliq stavkalari past bo'lsa bu ta'sir ham uncha qiyinchilik yaratmasdan korxonaning byudjet oldidagi xissasini biroz ko'paytiradi. Sababi QQS korxona olgan aniq daromadni to'g'ridan-to'g'ri qisqartirmaydi. Shu nuqtai nazardan olganda bu soliq amaliyotda ishlatilganda mahsulot sotuvchi ish bajaruvchi xizmat ko'rsatuvchi korxona uchun nisbatan yaxshi. Uni quyidagi misol bilan tushuntiramiz. Masalan: A korxona B korxonaga aytaylik, 100 ming so'mlik mahsulot ortdi. QQS stavkasi 20 foiz bo'lganda B korxonadan jami 120 ming so'm o'ndirib oladi. Uning 20 ming so'mi QQS summasidir. Biroq A korxonaning uzi shu 100 ming so'mlik mahsulotni ishlab chikarish uchun G korxonadan 50 ming so'mga mahsulot sotib olgan va energetika tashkilotlariga 10 ming so'm energiya haqi to'lagan. Ayni paytda mahsulot etkazgan korxonaga va energetika korxonasiga 12 ming so'm QQS to'lagan $((50 + 10) \times 20 : 100)$. Shu to'langan summa uzi undirib olgan 20 ming so'mdan hisobga olinib, davlat byudjetiga A korxona 8 ming so'm QQS to'laydi.

Demak A korxona o'z daromadidan bir so'm ham QQS summasini to'lamagan. Bu umumiy hol bilvosita soliq mohiyatini to'liq ochib turibdi jahon soliq amaliyotiga mos keladi.

Ammo bizning soliq konunchiligimizda quyidagi yuridik shaxslarga QQSdan imtiyoz berilgan ya'ni ular byudjetga QQS tulashtan ozod etilgan;

- yagona soliq to'lovchi kichik korxonalar;
- yagona er soliq to'lovchi qishloq xo'jalik tovar ishlab chikaruvchilari;
- yalpi daromaddan soliq to'lovchi savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari;
- korxonaning umumiy ishlovchilari tarkibida 50 foizi nogironlar bo'lgan korxonalar va boshqalar.

To'g'ri bu tadbir soliqlarni ixchamlashtirish maqsadida amalga oshirilganda QQS ni ham to'lanmaydigan qilib belgilangan. Lekin bu erda bir taraflamalikka yo'l qo'yilgan. Ya'ni yuqoridagi yuridik shaxslar byudjetga QQSni to'lamaydilar. Mahsulot (ish, xizmat) etkazuvchilarga esa to'laydilar. Agar haqiqatan ham kichik biznes va boshqa tadbirkorlarni rag'batlantirish zarur bo'lsa, ularga nisbatan ham QQSning nolli stavkasini qo'llanib soliqdan tamomila ozod qilish maqsadga muvofiq bo'ladi yoki to'langan soliqni hisobga olish zarur. Tilga olingan yuridik shaxslarni QQSdan to'liq ozod etish bilan ya'ni ularga 30 dan ko'proq mahsulot ish xizmat turlari bo'yicha imtiyozlar berilib korxonalar ishi ancha ko'paytirilgan. Bu erda imtiyoz olmoqchi bo'lgan korxona imtiyozga tegishli xizmat, ish, mahsulot turi bo'yicha alohida buxgalteriya hisobini yuritishi kerak.

Ishlar, xizmatlar, mahsulotlar turlariga imtiyozlar berish QQS mohiyatiga mos kelmaydi. Bunday imtiyozdan byudjetga ham korxonaga ham naf yo'q. Aksincha korxonaning moliyaviy ahvoliga salbiy ta'sir etadi.

Imtiyozga ega korxonalar mahsulot etkazuvchilardan olgan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ga tulagan QQS summasini to'laligicha ishlab chiqarish harajatlari qo'shishga majbur bo'ladilar. Chunki hisobga olish mumkin emas. Natijada ularning mahsulotlari qiymati 20 yoki 15 foizga oshib, korxona daromadini kamaytiradi. Demak, bunday holatlarda QQSning betaraflik tamoyili buzilib u ham to'g'ri soliqlarga o'xshab qolmoqda. Bu esa korxonalar faoliyatining moliyaviy natijalarini yomonlashtiradi. Shu bois bilvosita soliqlardan umuman imtiyoz kerakmi, degan savolni atroflicha o'ylab ko'rishga to'g'ri keladi. Bizning fikrimizcha QQSdan imtiyozlarning hojati yo'q chunki, ular korxonalarning moliyaviy ishlarini chalkashtiradi. Bu o'rinda korxona QQSdan imtiyoz olganga haraganda soliq to'lasa imtiyozga ega bo'ladi. Agar bu erda mahsulot (ish, xizmat) ortgan, sotgan korxonani emas, iste'molchi manfaatini o'ylaydigan bo'lsak, boshqaimtiyozlardan foydalanish masalasini o'rtaga so'yish kerak. Masalan byudjetdan ularga maqsadli va adresli subsidiya berish va boshqahar ikki tomonga ham qulaylik yaratadigan variantlarni qo'llashni taqozo etadi. Bu fikrlarning amaliyotda qo'llanilishi esa bilvosita soliqlar mohiyatini ifodalaydi,

ularni o'z o'rnida to'liq, ishlatish imkonini beradi va byudjetga soliqlarning to'liq tushishini ta'minlaydi.

Bilvosita soliqlarning yuki oxiri iste'molchiga borib tushadi, deb hisoblash noto'g'ridir. Birinchidan, bilvosita soliqlarning o'sishi tovarning narxini oshiradi, bu esa o'z navbatida, sotib oluvchi korxonalarning talabining qisharishiga olib keladi. Natijada taklif mos ravishda qisharadi, bu esa real (haqiqiy) soliq bazasining kamayishiga olib keladi. Ikkinchidan, davlat tomonidan ishlab chiqarish sohasidagi moliyaviy qiyinchiliklar davrida bilvosita soliqlarning haddan ortiq soliq yuki to'lanmagan hisob to'lovlari va byudjetga tushmagan tushumlarning ko'payishiga olib keladi.

Shu sababli bilvosita-soliq yukini tovarlarni aholiga realizatsiya qilishda iste'mol soliqini (sotishdan soliq) kiritish maqsadga muvofiq. Birinchidan, iste'mol soliqini kiritish odilona soliqqa tortish tamoyillariga javob beradi, o'z navbatida, iste'molning yuqori sur'ati orqali katta soliq tushumiga erishiladi. Ikkinchidan, iste'mol soliqi boshqa bevosita va bilvosita soliqlarning yo'qotishlarini qoplashi lozim.

QQS eng jiddiy tahlil va optimallashtirishni talab qiladi, chunki u birinchidan, korxona-ishlab chiqaruvchining oraliq iste'mol tovarlari jarayonida narxni oshiradi. Ikkinchidan, tomondan ikki yoqlama soliqqa tortishni nazarda tutadi (soliqqa qo'shilgan qiymat - ish haqi, foyda tortiladi). Quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

QQS stavkasini keyingi yillarda 15 foiz tushirish va asta-sekin QQSnı tabaqalashgan soliqqa tortishga o'tish (masalan, ijtimoiy muhim tovar va xizmatlar uchun stavkani pasaytirish, shu vaqtda boshqa tovarlar uchun esa stavkani oshirish);

QQSnı soliqqa tortiladigan bazasi ichidan aktsiz solig'i bojxona bojlarini chiqarib tashlash. Iste'mol soliqlarining kiritilishi adolatlilik tamoyiliga to'g'ri keladi, chunki yuqori daromadli aholi qatlami iste'mol darajasining yuqoriligiga muvofiq yuqori soliq summasini to'laydi. Ikkinchidan, iste'mol soliqi boshqa bevosita va bilvosita soliqlarning pasaygan qismini qoplashi lozim.

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, YaIMga nisbatan soliqlarni byudjetga jalb etishning aniq me'yoriy chegaralari shakllantirilgan. Bu chegara o'rtacha 20-22% ni tashkil etadi. Bizning respublikamizda ham ushbu me'yoriy chegara darajasiga erishish va barqaror holatda saqlab turish lozim. Buning uchun byudjet daromadlari va xarajatlari bo'yicha chuqur tarkibiy o'zgarishlar va islohotlarni amalga oshirish zarur. Xususan, byudjet daromadlarini shakllantirish jarayonini takomillashtirish maqsadida:

- soliq qonunchiligini takomillashtirish, soddalashtirish, ularga qonuniy aniqlik kiritish, soliq stavkalarini pasaytirish, soliqqa tortish bazasini kengaytirish;
- soliq imtiyozlarini real tarzda qayta ko'rib chiqish, samarasiz imtiyozlardan voz kechish;
- soliqqa oid jinoyatchilikka harshi kurashda keskin choralar qo'llash va boshqalar.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning va soliq-byudjet siyosatining asosiy maqsadlaridan biri mamlakatda ishlab chiqaruvchilar o'rtasida erkin raqobatni yuzaga keltirish orqali ichki bozorni to'yintirish hisoblandi. Ammo bizning fikrimizcha soliq siyosatining imtiyozli yo'nalishlari bu maqsadni ba'zan inkor etishini ko'zatamiz, ya'ni bir tarmoqdagi ikki xo'jalik yurituvchi sub'ektning biriga imtiyoz berish orqali, ikkinchisining imkoniyatlarini kamaytirib qo'yish mumkin. Shuning uchun imtiyozlarni belgilashda asosiy omil qilib tarmoq xususiyatini olish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz. Bu esa bir tarmoq ichida erkin raqobatni va narxlar tengligini ta'minlaydi.

Davlat moliyasini strategik taxminlashtirishda fiskal va iqtisodiy funktsiyalarning muvofiqligini ta'minlash zaruriyatidan kelib chiqib, soliq turlari, soliq stavkalari, imtiyozlar tizimini va xarajatlar tarkibi va tuzilishi hamda ular samaradorligini oshirish bo'yicha quyidagilar taklif qilinadi:

-qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash mexanizmining soddalashtirilgan tartibini ishlab chiqish, imtiyozlarni qaytadan ko'rib chiqish va mazkur soliq bo'yicha tabawalashtirilgan soliq stavkalarini joriy qilish kerak deb o'ylaymiz;

-aktsiz solig'i ko'pgina mamlakatlar qatorida O'zbekistonda ham qo'llanilmoqda. Ammo, aktsiz solig'ini uning asosiy tamoyillaridan kelib chiqib qo'llanilishi, ya'ni narxlar darajasining o'zgarishi iste'molga bo'lgan talabga ta'sir o'tkazmaydigan tovarlarga: bezak buyumlari, aholining boylik darajasini belgilab beruvchi tovarlar, inson va jamiyat sog'lig'i uchun zararli tovarlarga qo'llanilishi maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz. Birinchi darajali iste'mol tovarlari: paxta yog'i, xo'jalik sovuni, guruch va boshqa mahsulotlar uchun aktsiz solig'ining joriy qilinishi byudjetning ijtimoiy yo'naltirilganligiga ziddir.

Tadqiqot ishimizning ushbu bobiga yakun yasab qilingan mushohadalarga asoslanib quyidagi xulosalarni keltirish mumkin:

Bilvosita soliqlar, asosan QQS va aktsizlar to'laligicha iste'molchi zimmasiga to'g'ri keladi. Lekin ular ishlab chiqaruvchi faoliyatiga ikki jihatdan ta'sir etadi:

-Soliq summalari korxona hisob rahamiga pul hali kelib tushmasidan to'lanadi;

Bilvosita soliqlar narxlarni maksimal darajaga etkazib, sotish hajmini kamaytiradi.

Bilvosita soliqlarning yuki oxiri iste'molchiga borib tushadi, deb hisoblash noto'g'ridir. Birinchidan, bilvosita soliqlarning o'sishi tovarning narxini oshiradi, bu esa o'z navbatida, sotib oluvchi korxonalarning talabining qisharishiga olib keladi. Natijada taklif mos ravishda qisharadi, bu esa real (haqiqiy) soliq bazasining kamayishiga olib keladi. Ikkinchidan, davlat tomonidan ishlab chiqarish sohasidagi moliyaviy qiyinchiliklar davrida bilvosita soliqlarning haddan ortiq soliq yuki to'lanmagan hisob to'lovlari va byudjetga tushmagan tushumlarning ko'payishiga olib keladi.

QQS eng jiddiy tahlil va optimallashtirishni talab qiladi, chunki u birinchidan, korxona-ishlab chiqaruvchining oraliq iste'mol tovarlari jarayonida narxni oshiradi. Ikkinchidan, tamoyilan ikki yoqlama soliqqa tortishni nazarda tutadi

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning uzoq va o'rta muddatga mo'ljallangan strategik vazifalarini belgilashda kelgusida davlat byudjetiga soliq tushumlarini prognozlash va tushumlarda bevosita va bilvosita soliqlar nisbatini optimallashtirish eng muhim vazifadir.

Rivojlangan davlatlar soliq tizimidagi islohatlardagi ilg'or tajribalarini O'zbekiston Respublikasida qo'llashda davlatimizning iqtisodiy va soliq siyosatining o'ziga xos xususiyatlari va tamoyillari nuqtai nazaridan ko'rib chiqilishi lozim. Bu albatta o'tkazilayotgan soliq siyosati islohatlarining ijobiy istiqbolini ta'minlaydi.

Xulosa va takliflar

Bugungi kunda yuridik shaxslar to'laydigan bilvosita soliqlar korxonalar moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga ta'sir etish mexanizmini takomillashtirish va soliq yukini optimallashtirish nazariy va amaliy jihatlarini o'rganish davlatimiz hukumati tomonidan olib borilayotgan iqtisodiy siyosatning dolzarb masalalaridan biridir.

Soliq tizimi davlatimiz rivojlanishining barcha bosqichlarida davlat byudjetiga zarur moliyaviy resurslarning kelib tushishishi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash bo'yicha o'z oldida turgan vazifalarni bajarib kelmoqda. O'zbekiston soliq tizimining rivojlanishi negiziga bir qancha soliq solish tizimi va soliq amaliyoti rivojlangan xorijiy davlatlarda asosiy hisoblangan va o'z samaradorligini ko'rsatgan soliq tizimining tuzilish tamoyillari asos qilib olingan.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan yuridik shaxslar to'laydigan bilvosita soliqlar orqali tartibga solinishi davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish, soliq solish vositasida jamiyatdagi u yoki bu jarayonlarning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatish vositasi hisoblanadi. Davlatning faoliyati yuridik shaxslar to'laydigan bilvosita soliqlar bilan uzviy bog'liq, chunki tushadigan soliq tushumlari davlat iqtisodiy mustaqilligining asosiy manbai hisoblanadi.

Yuridik shaxslar to'laydigan bilvosita soliqlarni belgilashda soliqlar darajasi mamlakat byudjetiga etarli miqdordagi tushumlar tushishini ta'minlashi bilan birga soliq yukining juda ham yuqori bo'lib ketmasligi zarurligini inobatga olish kerak bo'ladi.

Soliq yukining yuqori bo'lishi tadbirkorlarning ishlab chiqarishni kengaytirishdan va iqtisodiy faoliyat yuritishdan manfaatdorligini pasayishiga olib keladi. Iqtisodiyotda soliq yukini kamaytirish asosan korxonalar foydasini soliqqa tortish stavkalarini pasaytirish hamda muayyan turdagi korxonalarga soliqdan imtiyozlar berish orqali amalga oshirilmoqda.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida yuridik shaxslar to'laydigan bilvosita soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar faqat qonunchilik asosida amalga oshiriladi. Soliq qonunchiligi hujjatlari qanchalik puxta va mukammal ishlangan

bo'lsa yuridik shaxslar to'laydigan bilvosita soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblash, undirish osonlashadi hamda ularni yig'ish arzonlashadi.

Soliq muammolari tarkibida soliq yuki muhim ahamiyat kasb etadi. Soliq yuki mamlakat iqtisodiy qudratiga, korxonalarning iqtisodiy va moliyaviy barqarorligiga bevosita bog'liqdir. Ular bir-biriga o'zaro ta'sir qiluvchi omillardir. Soliq yuki xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning davlat byudjetiga belgilangan stavkada va tartibda yuridik shaxslar to'laydigan bilvosita soliqlarning ish hajmiga, foydaga nisbati tushiniladi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga to'g'ri keladigan soliq yukini hisoblash uchun soliq to'lovchilarning qaysi tur soliq to'lovchi ekanligini belgilab olish muhimdir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yuridik shaxslar to'laydigan bilvosita soliqlar mamlakatimiz soliq tizmining bir bo'lagi hisoblanib, amalga oshirilayotgan soliq solish tizimidagi islohatlar mamlakatning iqtisodiy ko'rsatkichlariga sezilarli tarzda ta'sir etadi.

Bitiruv malakaviy ishimizning nihoyasida yuridik shaxslar to'laydigan bilvosita soliqlarning O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida tutgan o'rni, yuridik shaxslar to'laydigan bilvosita soliqlarni hisoblash mexanizmini takomillashtirish va rivojlanish istiqbollari hamda uni o'rganish asosida olingan asosiy xulosa va takliflarni qisqacha aks ettiramiz.

Ular quyidagilardan iborat:

Birinchidan, bilvosita soliqlarni undirishni nazariy va uslubiy asoslari umumlashtirildi.

Ikkinchidan, yuridik shaxslar to'laydigan bilvosita soliqlarni undirish mexanizmining amaldagi holatiga baho berilib tahlil qilindi.

Uchinchidan, O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida yuridik shaxslar to'laydigan bilvosita soliqlarni tutgan o'rni va ahamiyati belgilab olindi.

To'rtinchidan, bilvosita soliqlarni undirishni nazariy-huquqiy asoslari o'rganildi.

Beshinchidan, bilvosita soliqlarni hisoblash mexanizmini takomillashtirish yo'llari ishlab chiqildi.

Umumiy xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yuqorida ko'rsatib o'tilgan vazifalardan kelib chiqqan holda quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bu esa o'z navbatida yuridik shaxslar to'laydigan bilvosita soliqlarni hisoblash mexanizmini takomillashuviga olib keladi.

Bu borada quyidagi takliflarni kiritish mumkin:

Birinchidan, aholi ehtiyoji uchun zarur bo'lgan O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan aktsizli tovarlarga va O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kelinadigan aktsizli tovarlarga nisbatan aktsiz solig'i stavkasini pasaytirish lozim. Masalan, o'simlik (paxta) yog'i, parrandalar tuxumi, tabiiy asal, sitrus va hul mevalar, baliq, qisqichbaqasimonlar, mollyuskalar yoki boshqasuvda ko'payadigan umurtqasizlardan tayyorlangan tayyor mahsulotlar, turli oziq-ovqat mahsulotlari, quyiltirilgan yoki shakar qo'shilgan, shakar qo'shilmagan sut mahsulotlari.

Ikkinchidan, aktsiz solig'i va transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqlarni byudjetga tolash muddatlarini qo'shilgan qiymat solig'i kabi belgilash. Bunda korxonalar ixtiyoridagi mablag'lardan bir muncha kuproq foydalanish imkoniga ega bo'lishadi.

Uchinchidan, qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash bazasini ko'rib chiqish lozim. Hozirgi tartib bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblashda aktsiz solig'i va bojxona boji summasi soliq solinadigan bazaga kiritilgan. Qo'shilgan qiymat solig'ini stavkasini pasaytirish va tabaqalashtirish orqali bilvosita soliqlar bo'yicha soliq yukini kamaytirish lozim.

To'rtinchidan, qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash muddatini korxona hisobrahamiga mablag' kelib tushish muddati bilan tenglashtirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

I. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident Farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari

1.1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2010.

1.2. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi: Rasmiy nashr – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: «Adolat», 2010 y. – 400 b.

1.3. O'zbekiston Respublikasining “Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida”gi Qonuni, - T.: Xalq so'zi, 2012 yil, 27 aprel.

1.4. O'zbekiston Respublikasining “Soliq maslahati to'g'risida”gi Qonuni, -T.: Xalq so'zi, 2006 yil, 21 sentyabr.

1.5. O'zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi Qonuni. - T.: Xalq so'zi, 1997 yil, 29 avgust. 1-2 bet.

1.6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 17 apreldagi «2013-2016 yillarda qishloq joylarida xizmat ko'rsatish va servis sohasini jadal rivojlantirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-1957 sonli qarori.

1.7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 25 dekabrda «O'zbekiston Respublikasining 2013 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida»gi PQ-1887 sonli qarori.

1.8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 30 dekabrda «O'zbekiston Respublikasining 2012 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida»gi PQ-1675 sonli qarori.

1.9. “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili” Davlat dasturi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. 20.01.2011 y. № PQ-1266.

1.10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 16 iyuldagi "Statistik, soliq, moliyaviy hisobotlarni, litsenziyalanadigan faoliyat turlarini va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan qisartirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4453-sonli Farmoni

1.11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 24 dekabrda «O'zbekiston Respublikasining 2011 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida»gi PQ-1449 sonli qarori.

1.12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 26 yanvardagi «Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozorni to'ldirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-1047-sonli qarori.

1.13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 27 yanvardagi «2009 yilda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturi to'g'risida»gi PQ-1048-sonli qarori.

1.14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 29 yanvardagi «Uy-joy fondini foydalanishga tayyor xolda topshirish shartlarida rekonstruktsiya qilish va ta'mirlash bo'yicha pudrat ishlarini kengaytirishni ragbatlantirishga doir ko'shimcha chora-tadbirlar to'grisida»gi PQ-1051 sonli qarori.

1.15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 21 maydagi «2010 yilga qadar O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-640 sonli qarori.

1.16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 5 oktyabrdagi «Tadbirkorlik sub'ektlarini tekshirishni yanada qisqartirish va uning tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-3665-sonli Farmoni.

1.17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 24 iyundagi «Tadbirkorlik sub'ektlarining xo'jalik sohasidagi huquqbuzarliklari uchun moliyaviy javobgarligini erkinlashtirish to'g'risida»gi PF-3622-sonli Farmoni.

1.18. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 15 iyundagi «Tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan taqdim etiladigan hisobot tizimini takomillashtirish va uni noqonuniy talab etganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish to'g'risida»gi PQ-100 sonli qarori

1.19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 14 iyundagi «Tadbirkorlik sub'ektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-3619-sonli Farmoni.

II. Prezident asarlari

2.1. Каримов И.А. Бош мақсадимиз – кенг кўламли ислохотлар ва модернизация йўлини қатъият билан давом эттириш. Халқ сўзи, 2013 йил 19 январь.

2.2. Каримов И.А. 2012 йил Ватанимиз тараққиётини янги босқичга кўтарадиган йил бўлади. – Т.: “Ўзбекистон”, 2012. – 36 б.

2.3. Каримов И.А. Демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини шакллантириш - мамлакатимиз тараққиётининг асосий мезонидир.–Т.: 19.Т. Ўзбекистон, 2011.

2.4. Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъруза), “Халқ сўзи”, 2010 йил 12 ноябрь (№ 220).

2.5. Каримов И.А. Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади. Халқ сўзи, 2011 йил 22 январь.

2.6. Каримов И.А. Асосий вазифамиз – ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир – Т.: “Ўзбекистон”, 2010. 80 бет.

2.7. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari.-Т.: «O'zbekiston», 2009 yil. 56 bet.

2.8. Каримов И.А. «Мамлакатимизни модернизация қилиш ва янгилашни изчил давом эттириш- давр талаби» -Т.: Халқ сўзи, 14 февраль, 2009 йил.

2.9. Каримов И.А. “Инсон манфаатлари устуворлигини таъминлаш – барча ислохот ва ўзгаришларимизнинг бош мақсадидир” – Т.: “Халқ сўзи”, 2008 йил 9 февраль.

2.10. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг 16 йиллик мустақил тараққиёт йўли. – Т.: “Ўзбекистон”, 2007 йил. 39-40 бетлар.

2.11. Каримов И.А. “Янгилашиш ва барқарор тараққиёт йўлидан янада изчил ҳаракат қилиш, халқимиз учун фаровон турмуш шароити яратиш – асосий вазифамиздир”. – “Халқ сўзи”, 2007 йил 13 феврал.

2.12. Каримов И.А. «Мамлакатимиз тараққиётининг қонуний асосларини мустаҳкамлаш фаолиятимиз мезони бўлиши даркор». –Т.: Халқ сўзи, 2006 йил 25 февраль.

2.13. Каримов И.А. «Эришилган ютуқларни мустаҳкамлаб, янги марралар сари изчил ҳаракат қилишимиз лозим». – Т.: Халқ сўзи, 2006 йил 11 февраль.

2.14. Каримов И.А. «Бизнинг бош мақсадимиз - жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ этишдир». – Т: Халқ сўзи, 2005 йил 29 январь.

2.15. Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. – Т.: Ўзбекистон, 1998. 358 б.

2.16. Каримов И.А. “Ўзбекистон иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш йўлида”. Т.: Ўзбекистон, 1995 йил.

III. Соҳага оид меъёрий ҳужжатлар

3.1. Солиққа оид қонун ҳужжатларидаги янгиликлар. 2013 йил. Тошкент: «NORMA». 2013.- 562 бет.

IV. Asosiy adabiyotlar

4.1. Xudoyqulov S.K. Soliq tizimi. O`quv qo`llanma. T.: “ILM ZIYO”, 2012. – 340 б.

4.2. Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг 2011 йилда мамлакатимизни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунлари ва 2012 йилга мўлжалланган энг муҳим устувор йўналишларга бағишланган Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги “2012 йил Ватанимиз тараққиётини янги босқичга кўтарадиган йил бўлади” мавзусидаги маърузасини ўрганиш бўйича ўқув қўлланма. – “Ўқитувчи” НМИУ, 282 б.

4.3. Т.С.Маликов, П.Т.Жалилов. Бюджет-солиқ сиёсати, - Т.: “Академнашр” 2011 й. 154 б.

4.4. Ваҳобов А., Жўраев А. Солиқлар ва солиққа тортиш. Дарслик-Т.:Шарқ, 2009. 448 бет.

4.5. Alimardonov M.I., To`xsanov Q.N. Soliq nazariyasi. –Т.: O`zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg`armasi nashriyoti, 2005, - 175 b.

4.6. Яхёев Қ.А. Солиққа тортиш назарияси ва амалиёти. Т.: Ўқитувчи, 2003.19-бет.

4.7. Налоги и налоогообложение: учеб. /Под ред. И.А. Майбутова. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2010. – 559 с.

4.8. Никулкина И.В. Общая теория налоогообложения: учеб. пособ. – М.: Эксмо, 2010. – 176 с.

4.9. Миляков Н.В. Налоги и налоогообложение: Учебник. — 7-е изд., перераб. и доп. — М.: ИНФРА-М, 2008. - 520 с.

4.10. Тухлиев Б.К., Юсупов О.А., Агзамов А.Т, Тўхсанов Қ.Н. Солиқлар ва солиққа тортиш: Ўқув қўлланма. – Т.: 2007. -320 б.

IV. Қўшимча адабиётлар

5.1. А.Воҳобов, З.Срожиддинова, Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджети. Ўқув қўлланма. – Тошкент: “Иқтисод-молия”, 2002 йил.

5.2. Митюкова Э.С. Налоговое планирование: анализ реальных схем. – М.: Эксмо, 2011. – 308 с.

5.3. Молчанов С.С. Налоги: расчет и оптимизация. – М.: Эксмо, 2010.– 544с.

5.4. Налоги и налоогообложение: Учебник. / Под. ред. И.А. Майбутова. 2-е изд., перер и доп. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2008.-511с.

5.5. Паскачев А. Б. Налоги и налоогообложение : учеб. пособие. — М.: Высшее образование, 2008. — 384 с.

5.6. Ўлмасов А. Иқтисодиёт асослари. Тошкент, «Меҳнат»-1997. 60-б

5.7. Тошмурадова Б. Солиқ муносабатларини оптималлаштириш. Ўқув қўлланма, -Т.: ТМИ, 2005. –158 б.

5.8. Маликов Т. Солиққа тортишнинг долзарб масалалари. Тошкент. 2000 йил. 164-бет.

5.9. Рикардо Д. Сочинения т. I. Начало политической экономики и налогового обложения. Пер. с англ. - М.: «Госполитиздат», с.360.

5.10.Пепеляев С.Г. Основы налогового права. М.: 1995, с 289.

5.11.Ўлмасов А., Шарифхўжаев М. Иқтисодиёт назарияси. Т.: “Меҳнат”, 1995 й. 377-бет.

5.12.Пушкарева В.М. История финансовой мысли и политики налогов: учебное пособие. – М.: 1996. 183 стр.

5.13.Гок. К. Государственного хозяйства. Налоги долги, Киев, 1865, С. 29.

5.14.Темур тузуклари. Тошкент. 1993 йил. 98 бет.

V. Даврий нашрлар, статистик ҳисоботлар ва тўпламлар

6.1. “Иқтисодиётни модернизация қилиш шароитида бюджет-солиқ сиёсатини такомиллаштиришнинг долзарб вазифалари” мавзусида Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. Солиқ академияси, Тошкент – 2012 йил, 128 бет.

6.2. Мамлакатимизни янгилаш ва модернизация қилиш шароитида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ривожлантиришда солиқ тизимининг ролини ошириш масалалари.- Т.:ТДИУ, 2011 йил 16 март.

6.3. Тўхсанов Қ.Н. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектлари фаолияти ривожланишига солиқ имтиёзларининг таъсири./ Иқтисодиёт ва таълим. 2012 й., 3-сон.

6.4. В. Ю. Галкин. «Некоторые вопросы теории налогов». Журнал «Финансы» № 1, 1993 г. стр.35.

6.5. Олимжонов. О. Бозор иқтисодиётига ўтиш даврида солиқ сиёсати. «Ҳаёт ва иқтисод», 1992. 5-сон.

6.6. Черник Д.Г. «Налоги в рыночной экономике», «Финансы», М.: 1992, - №3. с.19 с.21.

6.7. Болдырев. «Финансы капитализма», «Финансы», М.:1987. с.21.

6.8. “Халқ сўзи” газетаси.

6.9. “Солиқлар ва божхона хабарлари» газетаси.

6.10. Солиқ тўловчининг журнали.

6.11. Ўзбекистон Республикаси солиқ органлари фаолиятининг 2012 йилги натижалари. - Т.: ДСК, 2013.

6.12. Бухоро шаҳар Давлат солиқ инспекциясининг 2011-2012 йиллари ҳисобот маълумотлари.

VI. Интернет сайтлари

7.1. www.lex.uz - Ўзбекистон Республикаси қонунлари базаси сайти.

7.2. www.mf.uz - Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги сайти.

7.3. www.soliq.uz - Ўзбекистон Республикаси Давлат солиқ қўмитаси сайти.

7.4. www.stat.uz - Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси сайти.

7.5. www.worldtax.org.

7.6. www.worldwide-tax.com,

7.7. www.taxworld.org